

TO'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

PEDAGOGIKA KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Boshlang'ich ta'lim pedagogika fakulteti
dekani
_____ dots.Rabbimov M.T
“_____” _____ 2013 y.

5141600 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

Boshlang'ich ta'limda ta'limiy qadriyatlarning orni **mavzusida bajarilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: A.Qodiriy nomli JDPI Pedagogika fakulteti “Boshlang'ich ta'lim sport va tarbiyaviy ish” yo'nalishi IV kurs talabasi **Jonizoqova Dildora**

Ilmiy rahbar: P.f.n. dosent **Kushvaktov N.X**

Ishni himoyaga tavsiya yetaman: P.f.n. dosent **Kushvaktov N.X.**_____

BMI Pedagogika kafedrası
yig'ilishining qarori bilan (Qaror № _____ y)
himoyaga tavsiya yetilgan.

Kafedra mudiri: dosent **Usmonov N.** _____ (Imi va sharifi) (imzo)

Jizzax - 2013

КИРИШ	3
I BOB BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TA'LIMiy QADRIYATLARNI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI	6
1.1. O'quvchilarga ta'limiy qadriyatlarga qiziqtirishni singdirish tizimi	6
1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'limiy qadriyatlarni shakllantirishning mohiyati	19
II BOB BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TA'LIMiy QADRIYATLARNI O'RGATISHNING SHART-SHAROITLARI	35
2.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'limiy qadriyatni o'rgatish metodikasi	35
2.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'limiy qadriyatlarni singdirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	47
Umumiy xulosa	56
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	57

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda yurtimizda barkamol avlod tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Shuning uchun ham zamonaviy ilm - fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chikarish soqalarida erishilgan yutuqlarni ta'lim tizimiga tatbiq yetish orqali malakali kadrlarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri ekanligi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da qayd yetib o'tilgan. Bugungi kunda respublikamizda jamiyatni tubdan o'zgartirish, demokratiyalash jarayoni sodir bo'lmoqda. Shuning uchun shaxs tarbiyasiga kompleks yondashuvlar amalga oshirilmoqda.

Boshlang'ich ta'limda ta'limiy qadriyatlardan keng foydalanish orqali o'quvchilarni ma'nan yetuk qilib tarbiyalash tizimiga shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Tarbiya – ta'lim pedagogik madaniyatga oid tushunchaga ega bo'lish orqali bugungi kunning ilg'or g'oyali insonlari o'z farzandlari taqdiriga befarq bo'lmaydilar. Bu borada I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch" asarida yoshlar tarbiyasiga har birimiz ma'sul ekanligimizni aytib o'tib, qachonki insonlar har tomonlama yaxshi yashashni istasa, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarashi shart degan fikrlarni keltirdi.

Ma'lumki jamiyat turli davrda shu zamondagi moddiy va ma'naviy hayotga muvofiq tarzda rivojlanib boradi. Ammo, insoniyat avloddan - avlodga o'tib kelayotgan xalq san'atini, urf - odatlarini, an'analarini, bebaho, takrorlanmas boylikni avaylab asraydi. Bu boylik shaxs rivojida g'oyat muhim ahamiyat kasb yetadi. Shuning uchun ham har qanday vaziyatda yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarashni o'rgatmoq zarur.

Ming yillar davomida odamlar o'z faoliyatlari jarayonida bolalarni va o'smirlarni turli xil mehnatga jalb etish hamda ularni jamoada mehnat qilish ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishga, qaratilgan ta'minotlarni berish orqali ularni hayotga tayyorlab borganlar.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va texnologiyalar jadal rivojlangan bir davrda yaxshi yashash uchun iqtisodiy ta'minlanganlik, ma'naviy yuksaklik bilan o'ziga xos axamiyat kasb etadi.

I.A.Karimov o'zining "Jahon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi" deb nomlangan asarida, iqtisodiy ma'naviy inqirozning oldini olishda kishilik jamiyatining ma'naviy olami o'ta muhimligini ko'rsatib o'tgan.

Xalqimizning milliy ongi, milliy g'ururi, milliy iftixori, ma'naviy dunyosi kundan–kunga boyib bormoqda. Bu yesa mustaqil davlatimizning ma'naviy asosini tashkil qiladi. Demak, ma'naviyat qay darajada shakllangan bo'lsa, u shunchalik taraqqiyotga xizmat qilgan. Milliy uyg'onish, milliy g'urur, milliy tuyg'uning tiklanishi-bu milliy rivojlanish bilan uzviy boqliq bo'lgan tabiiy qonuniy jarayondir.

Milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimiz qayta tiklanib yanada rivojlangandagina jamiyatimizda o'tkazilayotgan islohotlar muvaffaqiyatli amalga osha oladi, chunki ma'naviy barkamol, ma'rifatli, ruhan bardam, yangicha tafakkurlash qobiliyatiga ega insongina istiqlol va taraqqiyot yo'lini sharaf bilan o'ta oladi. Shunday ekan, xalqiamizning madany merosi, yuksak ma'naviy qadriyatlarini chuqur va atroflicha o'rganib, ularni Respublikamizda yashovchi har bir insonning ongiga singdrib, ayniqsa, yosh avlodni ma'naviy yetuk, fidoyi kishilar yetib tarbiyalash hozirgi kunda dolzarb muommolardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov so'zlagan nutqida ta'lim qadriyatlarining ijtimoiy va shaxs omiliga yo'nalganlik xususiyatini ochib berdi. Ijtimoiy qadriyatlar, shu jumladan, ta'limiy qadriyatlar ham shaxsni shakllantirishga xizmat qilishi, uning qadr-qimmatini oshirishi, pedagoglar tomonidan shaxs omilining ta'lim-tarbiya jarayonlarining yetakchi subyekti sifatida tan olishini ta'minlashi, unda yerkin va mustaqil fikrlash, shuningdek, ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berishi maqsadga muvofiqdir. Binobarin, barkamol shaxs va malakali mutaxxasisni tarbiyalab voyaga yetkazishga bo'lgan yehtiyoy

rivojlanayotgan hamda yangicha ijtimoiy munosabatlar qaror topayotgan mavjud sharoitda yanada dolzarb ma'no va mohiyat kasb yetadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov yuqorida qayd yetilgan ijtimoiy talab mohiyatini quydagicha yoritadi. "O'z xaq- xuquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofidagi sodir bo'layotgan voqea-qodisalarga mustaqil munosabat bilan yondoshadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalk manfaatlari bilan uygun xolda quradigan erkin, xar jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak". Bu esa ta'limiy qadriyatlarga bog'liq. Shuning uchun ham yoshlarga ta'limiy qadriyatlarni o'rgatib tanlangan mavzuning dolzarbligini ta'kidlaydi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: ta'labalarga ta'limiy qadriyatlar ta'lim-tarbiya jarayonlari muhim o'rin egallashini ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari: qo'yilgan muommoni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish lozim:

- ta'lim va tarbiya jarayonlarida talabalarga ta'limiy qadriyatlar xaqida ma'lumotlar berib borish;

-boshlang'ich ta'limda ta'limiy qadriyatlarni o'quvchilar ongiga singdirish metodikasini asoslab berish;

- ta'limiy qadriyatlarini ta'lim jarayonida qo'llashda zamonaviy pedagogik texnologiyasidan unumli foydalanish zaruriyati to'g'risida tushuncha berish.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti: Ta'limiy qadriyatlarni talabalar ongiga ta'lim – tarbiya jarayonlarida singdirish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati: Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ta'limiy qadriyatlarga oid ma'lumotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida singdirish milliy qadriyatlarni ta'lim tizimiga joriy yetishning ustuvor metodikasini yaratish va amaliyotga joriy yetish.

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING TUZILISHII: BMI kirish qisimi, ikki bob, xulosa, tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1 BOB. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TA'LIMiy QADRIYATLARNI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. O'quvchilarga ta'limiy qadriyatlarga qiziqtirishni singdirish tizimi.

Ma'lumki, jamiyatdagi ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy-madaniy o'zgarishlar ta'lim tizimiga ham ta'sir etib, uning mazmun mohiyatini tubdan o'zgartirib yubordi.

I.A.Karimov o'zbekiston Respublikasining Oliy majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida “Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqorolik jamiyatini barpo etish – ustvor maqsadimizdir” – deb nomlangan ma'ruzasida “Mintaqamizda va butun dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab ijtimoiy sharoitda bizning zimmamizda mamlakatimizning xavfsizligi va barqarorligini taminlash, shu muqaddas zaminimizda hukum surayotgan tinch – osoyishta hayotni saqlash kabi bir-biridan ma'suliyatli va keng ko'lamli bir qator vazifalar borki yurtimizning jondan aziz farzandlarimizning buguni va ertangi kuni anashu masalalarni qanchalik muvafaqqiyat bilan hal etishimizga bog'liq”.

Haqiqatdan ham ijtimoiy muammolarni hal etishda davlat bir qator chora tadbirlarni ishlab chiqib xalqqa qulay sharoitlarni yaratib bermoqda. Uning natijasida esa kishilarning yashash tarzi keskin ijobiy tomonga o'zgarib bormoqda. Bu masalalarga prezidentimiz I.A.Karimov 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda o'zbekistonni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlidsidagi “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish” - deb nomlangan ma'ruzasida jumladan shunday fikrlarni bildirib o'tdi. “Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talabriga to'liq javob beraoladigan, barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz.”

Bugungi kunda, bizning yurtimizda olib borilayotgan tub islohatlar faqatgina inson omiliga qaratilgan bo'lib o'sib ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning har

tomonlama yetuk, barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishiga qaratilgan. Bu yil, ya'ni 2010 yilning O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov "Barkamol avlod" yili deb nomlagani ham, shaxsan prezidentimizni yoshlarga bo'lgan cheksiz mehr – muhabbatidan darak beradi.

"Barkamol avlod" davlat dasturining qabul qilinishi, yoshlarga keng imkoniyatlarni yaratib berishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Barkamol avlod" yilida har bir yosh, o'zining iqtidorini, qobiliyatini, imkoniyatini namoyon etib, O'zbekiston yoshlari nimalarga qodir ekanligini ko'rsatishga ishonaman degan fikrlarni bildirganligining o'zi yoshlarga ishonch degan ma'noni anglatadi.

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" nomli kitobida "har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur yetib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki ma'naviy meros madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar yeng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi", deb ta'kidlaydilar.

Demak, bugungi kunda biz, o'sib ulg'ayib kelayotgan yosh avlod qalbiga eng go'zal hislarni, orzu umidlarini milliy qadriyatlar, ta'limiy qadriyatlarga tayanib shakllantirishimiz zarur. Uni amalga oshirish esa, o'qituvchilardan o'ziga xos mahoratni talab qiladi. Shuning uchun ham biz, bo'lajak o'qituvchilarga ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat, qadriyat kabi tushunchalarni singdirishimiz lozim. Bunday tushunchalar quyidagicha mazmun mohiyatga ega:

Ma'naviyat – kishining ichki, ruhiy, axloqiy qiyofasi tushunchasi bo'lib, ma'lum bir axloq me'yorlari, maromlari asosida yashash tarzi, umuman hayotdir.

O'rta Osiyo xalqining eng qadimgi «Avesto» diniy kitobining og'zaki vujudga kela boshlashi natijasida, ya'ni miloddan 3000 yillar muqaddam shakllanib kelgan G'arb va jahondagi boshqa mamlakatlarda yashovchi xalqlar ma'naviyatiga zid o'laroq **uyat, andisha, sharm-hayo, ibo, or-nomus, iffat, g'urur, izzat-nafs, qadr, insonparvarlik, muruvvat** kabi axloq me'yorlariga asoslangan insonning ruhiy, axloqiy qiyofasi bo'lib, shular asosida tashkil topgan urf-odatlar, milliy an'analar va turmush kechirish tarzi hisoblandi.

Ma'rifat (arabcha «a'rafa», bilmoq so'zidan) – tarbiyaviy, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g'oyalar majmui asosida kishilarning ong va bilimni, madaniyatini o'stirishga qaratilgan faoliyat. Ma'rifat odamlarga bilim berish, ko'nikma va malaka hosil qildirish demakdir.

Tilimizda ma'rifat vositasida kurashish degan tushuncha mavjud bo'lib, biron bir xavfning mohiyatini chuqur anglab, unga qarshi bilim bilan ongli ravishda kurashishga aytiladi. Bunga jadidchi olimlarimizning sobiq tuzum kirdikorlarini o'z asarlari orqali fosh qilishlari va g'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashganlari misol bo'la oladi.

Madaniyat – dunyo to'g'risidagi tasavvurlar boyliklari va muayyan turmush tarzining umumiylik bilan bog'liq bo'lgan odamlar uchun umumiy axloq qoidalari tizimi. Madaniyatni o'zlashtirish, o'rgatish yoki o'qitish yordamida amalga oshiriladi. Shaxsning (axloqiy, siyosiy, kasbiy va hokazo) madaniyati bilimlar, malakalar, ko'nikmalar, axloqiy qobiliyati, axloqiy va estetik rivojlanish, dunyoqarash, odamlar bilan o'zaro muloqotlarining usullari va shakllari, shaxsiy qobiliyatlarining rivojlanish darajasi kabi faoliyatda amalga oshiriladigan insoniy kuchlar va qobiliyatlarni o'z ichiga oladi.

Shaxsning madaniyat darajasi uning umumlashgan madaniy merosga erishganligi, o'ziga xos qobiliyatlarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

Qadriyat – qadr-qimmat ma'nosini anglatib, inson uchun qadrli bo'lgan barcha narsa va hodisalar (predmet va jarayonlar) majmuidir.

Demak, yuqorida keltirilgan barcha ta'riflar bizlar uchun qadriyatdir. Bu borada faylasuf olim Ye. Yusupovning ta'kidlashicha, **Qadriyat** - bu inson yoki jamiyatning u yoki bu ehtiyojini qondiradigan va moddiy va ular manfaatiga xizmat qiladigan moddiy va ma'naviy ehtiyoj va manfaatdir. Umuman, qadriyatlar jamiyat hayotining tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan o'tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir yetadigan, kishilar ongiga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb yetadigan moddiy va ma'naviy boylikdir.

Shundan kelib chiqqan holda biz qadriyat kishilik jamiyatida muhim hisoblangan undagi moddiy va ma'naviy yuksaklikka xizmat qiladigan insonlar tomonidan qadrlanib kelinayotgan ma'naviy unsur deb baxolashimiz mumkin.

Bunga J.Tulenov ham o'ziga xos ta'rif berib o'tgan: «**Qadriyatlar** deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushunilmog'i lozim.

Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko'ra milliy, mintaqaviy va umuminsoniy turlarga bo'linadi.

Milliy qadriyatlar – muayyan bir millat, elat va xalq hayoti, turmush tarzi, ularning o'tmishi, kelajagi va yashayotgan ijtimoiy muhiti bilan bog'liqdir deb falsafa bo'yicha qomusiy lug'atda ta'rif berib o'tilgan.

Bu chiqarilgan xulosa milliy qadriyatlarni o'rganishda talabalarda milliy g'oya, milliy ong, milliy g'urur tushunchalari ketma-ketligini shakllantirish lozimligini ko'rsatdi. Chunki milliy g'ururi bo'lmagan inson hiech qachon Vatan boyliklari qadriga yetmaydi, uni asrashni xayoliga ham keltirmaydi, ya'ni vatanparvar, fidoyi inson bo'lib yetisha olmaydi.

Qadriyatlar o'zining mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Jumladan inson va uning hayoti yeng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yo'q joyda biron narsaning qadr- qimmatini haqida so'zlash be'manilikdir. Shuning uchun ham inson qadr-qimmatini e'zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'liqini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil yetadi. Jamiyatimizda yuz berayotgan tub o'zgarishlarning, islohotlarning barchasi kishilar hayoti to'q, boy, go'zal bo'lishi, inson o'zini chinakam yerkin his yetishi, o'z mehnati natijasining, o'z taqdirining, o'z mamlakatining egasi bo'lishini taminlashga qaratilgandir.

Shundan kelib chiqqan holda qadriyatlarga kompleks yondashuv asosida, fikr bildirishga harakat qilamiz.

Qadr – kishining jamiyatda tutgan o'rni, obro'-e'tibori, hurmati, nufuzi.

Qadriyat – tevarak-atrofdagi narsalarning, kishining jamiyat uchun ijobiy yoki salbiy ahamiyatini ko'rsatuvchi tushuncha bo'lib, axloqiy tamoyillar,

g'oyalar, yo'l-yo'riqlar va maqsadlarda ifodalangan ana shu tushunchaga baho berish mezoni va usullari hisoblanadi.

Qadriyatga umuminsoniy qadriyatlar – ma'lum bir axloq me'yorlari, ilg'or, taraqqiyparvar madaniy meroslar kiradi.

Qadriyatlar moddiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'navi qadriyatlarga hamda ijobiy va salbiy qadriyatlarga bo'linadi.

Qadriyatlar faqat o'tmish uchun qadrli bo'lmasdan, balki hozirda ham kelajak taraqqiyotida ham qadrli bo'lib, ular jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qiladi hamda kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma'naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va h.k.lar majmui tushuniladi.

Qadriyat turlari quyidagilar:

- tabiiy qadriyatlar;
- moddiy qadriyatlar;
- ma'naviy qadriyatlar;
- estetik qadriyatlar;
- milliy qadriyatlar;
- umuminsoniy qadriyatlar.

Bular o'z navbatida shajaraviy xususiyatga ega.

Tabiiy qadriyatlar – insonning yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan resurslar, ya'ni yer va yer osti boyliklari, suv, havo, o'rmonlar, o'simliklar, hayvonot dunyosi va boshqalar.

Moddiy qadriyatlar – insonlarning moddiy ehtiyojlarini qondirishda qadrli bo'lgan narsa (predmet, buyum)lardir. Ular: ishlab chiqarish vositalari va qurollari, mehnat predmetlari, moddiy ne'matlar, kishi faoliyati jarayonini amalga oshirishdagi buyumlar.

Ma'naviy qadriyatlar – siyosiy, huquqiy, badiiy, diniy, estetik, falsafiy, axloqiy, ma'rifiy, madaniy qadriyatlar majmuasidir.

Estetik qadriyatlar – barcha ham shaklan, ham mazmunan go'zalliklardir (barcha tabiiy va ijtimoiy go'zalliklar).

Milliy qadriyatlar – muayyan xalq va millatlarning uzoq tarixiy davrlar asosida rivojlanib kelgan va ma'lum shakl va mazmunga ega bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuasidir.

Umuminsoniy qadriyatlar – umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan va uning sivilizasiyasi bilan bog'liq bo'lgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmuasidir. Umuminsoniy qadriyatlarning **asosini** kurrai zamindagi ilm-fanni taraqqiy ettirish, dunyo bo'yicha tinchlik va barqarorlikni saqlash, ekologik muammolar yechimini izlash, yadroviy qurollar poygasini to'xtatish, turli xalqaro xavflarni oldini olish, turli kasalliklarning oldini olish, tabiatni muhofaza qilish, qashshoqlik va savodsizlikka barham berish, sanoat xom ashyosi, energiya manbalarini yaxshilash, koinot va jahon okeani resurslarini o'zlashtirish va shu kabilar bilan bog'liq bo'lgan muammolar tashkil etadi.

Jumhuriyatimizning oldida turgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy muommolarni qal etishga to'sqinlik qiladigan qodisalar reaksion qadriyatlarga kiradi.

Progressiv qadriyatlarning barcha turlari insonning farovon hayot kechirishini, erkin yashashi, ma'naviy- axloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladigan vositalar hisoblanadi. Shuning uchun ham ularni avaylab asrash, yuksaltirish inson shaxsiy hayotida ham, jamiyat taraqqiyotida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Tushunchaning tub ma'nosi borasida bildirilgan fikrlarni umumlashtirish asosida, ta'limiy qadriyatlar tushunchasini shunday sharqlashimiz mumkin: ta'limiy qadriyatlar shaxsga ilmiy-nazariy bilimlarni berish, unda yuksak ma'naviy— axloqiy sifatlarni tarbiyalash, uning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga etishida muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan, shuningdek, o'ziga qos ahamiyat kasb etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar majmuasidir.

Yangilangan jamiyat, ma'naviy, intellektual qadriyatlar, xalqning boy an'analari, umuminsoniy hamda milliy qadriyatlar, fan, texnika, texnologiyalar yutuqlariga tayangan holda, shuningdek, ma'naviy — axloqiy an'alarini qayta tiklash va iyojlantirish asosida rivojlanadi.

Qadriyatlar va ulardan ijtimoiy xamda pedagogik munosabatlarni tashkil etish jarayonida foydalanish borasidagi vazifalar — ta'lim mazmuni, uning jarayoni va «pedagog - o'quvchi» tizimidagi o'zaro munosabatlarni tashkil etish asosiga kiritilishi lozim. Pedagogik munosabatlar muommolarini qal etish ham talab etiladi. Bo'lajak boshlang'ich o'qituvchisini tayyorlash bilan boqliq pedagogik qodisani ham e'tibordan chetda holdirib bo'lmaydi.

Bu murakkab va ko'p qirrali ijtimoiylashish jarayoni – bugungi kunda muhim ijodiy yo'nalganlik, ijtimoiy- pedagogik qadriyat sifatida aloqida e'tiborni talab qiladi. Ta'limdagi yangi qadriyatlar shaxsning “ta'lim va mutaxassislik yo'nalishlarini” tanlab va pedagogik faoliyatida ijodiy imkoniyatlarini faollashtiruvchi, “Men” kontseptsiyasi negizida qadrlash munosabatida bo'lishi bilan rivojlangan shaxsni shakllantirishga haratilgan innovatsion o'qitishni talab etadi:

- o'kuvchilarning xususiyatlari va qobiliyatlarini, ularning ichki imkoniyatlarini ochib berishga haratilganlik;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarni pedagoglar ongiga singdirish;
- shaxs, jamiyat va atrof- muqitning munosabatlarini uyqunlashtirish;
- munosabatlardagi qadriyatni an'analar asosida o'kituvchi va o'kuvchining bir – birini qurmat qilishi;
- o'kuvchilarda estetik boy dunyoharashni, yuqori ma'naviylikni, madaniyatlilik va ijodiy fikrlashni shakllantirish;
- ijodiy fikrlash, bashorat qila olish, muqobil fikrlanga imkon beruvchi shakl, metod va vositalaridan foydalanib, ijtimoiy ahamiyatli qarorlar qabul qilishga o'rgatish.

O'kituvchilarni, eng avvalo, pedagogika oliy yurtlarida kerakli darajada tayyorlashning pedagogik, ijodkorlik muammolarini echish uchun metodologik, nazariy va amaliy asoslarini aniqlash zarur.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'kituvchilarni tayyorlash jarayonida muammoning mavjud holatini o'rganish va taqlil qilish quyidagi xulosalarga kelishga imkon beradi:

- ta'limiy qadriyatlar pedagog kadrlarni tayyorlash xamda ularning kasbiy malakalarini takomil lashtirish maksadida pedagogika oliy o'kuv yurtlarida alohida mavzu sifatida o'rganilmaydi;
 - pedagogika oliy o'kuv yurtlari ta'limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlar tayyorlashga oid tavsiyalarga muqtojdirlar.
- quyida muhim ta'limiy qadriyatlar, ularning psixologik — pedagogik jihatlari ochib beriladi:
- zamonaviy ta'lim mazmuni, uni takomillashtirishning metodologik va nazariy yunalishlari;
 - bo'lajak o'qituvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasiga quyiladigan talablar, malakali pedagog kadrlarni sifatli tayyorlashga imkon beruvchi omillar va ushbu holatni yorituvchi ko'rsatkichlar;
 - shaxsiy — kasbiy sababiylik omili;
 - didaktik tamoyillar;
 - zamonaviy ta'lim shakli, metod, vositalari, tizimi, texnologiyasi va asosiy elementlari; zamonaviy pedagogik texnologiyalarning turlari, interfaol metodlar;
 - ta'limning zamonaviy metodologiyasi, xususan, O'zbekistan Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida yaratilgan oliy pedagogik ta'lim kontseptsiyalari, davlat ta'lim standartlari, professiogrammalar;
 - jamiyat ijtimoiy — iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishi, ilmiy —texnik taraqqiyot yutuqlari, jamiyat ijtimoiy hayoti;
 - ilm —fan va ishlab chiharish yutuqlarining ta'lim mazmunida aks etishi; ta'lim, fan va amaliyot birligi;
 - kasbiy — pedagogik vazifalarining takomillashtirilganligi;
 - fan, shu jumladan, pedagogika fanining tarakkiyoti;
 - Shark mutafakkirlari va xalq pedagogikasi qoyalarining ustuvorligi;
 - milliy va xorijiy mamlakatlar pedagogikasi erishgan yutuqlar;

- ta'lim va tarbiya jarayoniga majmuaviy, tizimli, mantiqiy — psixologik yondoshuv, shuningdek, talabalar idrok etish, intellektual — ijodiy va tadqiqotchilik faoliyatining tashkil etilishiga aloqida e'tibor berish;
- ta'lim jarayonida bilim olish, rivojlanish va tarbiya jihatlarning o'zaro aloqadorini kuchaytirish, ta'lim jarayonida tarbiyaning ustuvorligi;
- zamonaviy ta'lim mazmunining yirik axborotlar qajmiga egaligi;
- ta'lim mazmunining bo'lajak mutaxassis tomonidan tashkil etiluvchi faoliyati mazmuni va tuzilishiga mos kelishi;
- o'quvchining ta'lim jarayonining eng etakchi ob'ekti va sub'ekti ekanligi; Mavjud shart — sharoitlarga muvofiq pedagogik harakatlarni bajarishda o'ziga xos maqorat talab etiladi. Xususan:
- ko'nikmalar;
- o'kuv materiallarining mazmuni bilan tanishib chihish, eslash yoki bevosita qayta tiklashga yunaltirilgan harakatni faollashtirish;
- munosabatlar va faoliyat davomida (tabiiy va maqsadga muvofiq ravishda) amalga oshiriladigan ijtimoiy tajribani egallash jarayoni va «Men» kontseptsiyasining dolzarblashtirilishi;
- pedagogik jarayonda o'kituvchi (boshharuvchi) xulqining namoyon bo'lishi.

Mutaxassislik qobiliyatlarini aniklash pedagogik faoliyatning muvaffakiyatli tashkil etilishi va yanada rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Ular shaxs rivojlanishning natijalari bo'lib, ma'lum pedagogik faoliyatni tashkil etish jarayonida kuzatiladi. Bo'lajak o'qituvchilar pedagogik usul va uslublarni tez, mustahkam, oson va chuqur egallab olishlari kerak (agarda talaba tanlagan kasbiga qiziqadigan bo'lsa, ayniqsa yaxshi o'zlashtiradi). Shu bilan birga muayyan qobiliyatning o'zi turli pedagogik faoliyatlarning asosiy sharti bo'lishi mumkin (chunonchi, aqliy saloqiyat).

Bo'lajak o'qituvchining qobiliyatlari o'zida individual xususiyatlarini namoyon etadi.

Muhim ahamiyatga ega bo'lgan qobiliyatlar sirasiga quyidagilar kiradi:

- pedagogik sezgirlik, kasbiy bashorat oldindan «ko'ra bilish», pedagogik taxmin kilish;
- faol ijtimoiy — pedagogik faoliyatini tashkil eta olish;
- «Men» kontseptsiyasini qadriyat sifatida tan olish va unga nisbatan ongli munosabatda bo'lish;
- ijodkorlik xislatiga egaliklari, pedagogik faoliyatni tashkil etishga nisbatan ijodiy yondasha olishlari;
- o'z ustida doimiy izlanishlar olib borish ko'nikmalarining shakllanganligi.

Pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mazmunida o'z ifodasini topgan ta'limiy qadriyatlardan yana biri — sababiylik omili va unga yangicha yondoshuv hisoblanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisiga pedagoglik kasbining ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, shuningdek, uning shaxsii va kasbiy imkoniyatlariga bulgan ishonchini mustahkamlash zarurdir.

Sababiylik omillari shaxsni faoliyatga chorlaydi, uning faoliyati va harakatlarini boshharadi. Sub'ektning jamoadagi o'rne hamda ijtimoiy munosabatlarining mazmuni, xulk —atvori, xarakteri, shuningdek, atrofdagilar bilan munosabatlarni tashkil eta olish layoqati asosida karor topadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mustaqil faoliyat yuritish, erkin fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, uni ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishga yunaltirish kasbiy etuklik sari olib boruvchi yo'l sanaladi. Ayni vaktida jaqon ta'limi oldida turgan asosiy muammolardan biri o'quvchini shaxe sifatida shakllantirishdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'limiy qadriyatlarni singdirishda avvalo o'quvchi shaxsini rivojlanish davrlariga aloqida e'tibor berishimiz lozim. Maktab yoshidagi bolalarni quyidagi davrlarga bo'lish mumkin.

1. Kichik maktab yoshi 6-7-11-12 yoshgacha bolalik.
2. O'rta maktab eshi 11-12 yoshdan 15-16 yoshgacha o'smirlik.
3. Katta maktab yoshi 16 yoshdan 18-19 yoshgacha o'spirinlik davri.

Bola 7 yoshdan ba'zan 6 yoshdan maktabga qabul qilinadi. U endi uyin faoliyatini o'qish faoliyatiga almashtiradi. Lekin bu ancha qiyin kechadi, albatta. Bolada qakikiy "mehnat davri" boshlanadi. qalam, ranglarni solishtirish, sanash, va qokoza. Unda endi iroda ixtiyoriy diqqat, tasavvur, tafakkur elementlari tarkib topadi. She'rlar yodlaydi. Xotira o'sadi. Lekin suyaklarning etarlicha qotmasligi tez shikastlanishlar bo'lishiga olib keladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy taraqqiyotining rivojlanishi asosan ko'rsatmasi ta'lim, suqbat usuli bilan rivojlanadi.

Zamonaviy pedagog kadrlarni tayyorlashda shaxsiy— kasbiy xususiyatga ega bo'lgan quyidagi ta'limiy qadriyatlarni aloqida qayd etish maqsadga muvofiqdir:

- o'zini tarbiyalash, muayyan farliyatni tashkil etish, o'z —o'zini boshharish, o'z —o'zini kuzatish, nazorat qilish, aniklash, ifoda etish, baholash va o'z — o'ziga hisobot berish;
- pedagogik faoliyatning individual xususiyatini namoyon eta olishi (pedagogik amaliyot davrida);
- bo'lajak o'qituvchining o'zi qakidagi tasavvurlari tizimi bo'lgan «Men» kontseptsiyasi.Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi, pedagogik faoliyatni tashkil eta olish layoqatiga egaligi, tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilish jarayonini nazorat qilib turishi, taqlil qilishi va baholab borishi lozim.

Bo'lajak o'qituvchilarda ta'limning yangi kontseptsiyasi, shuningdek, didaktik qoyalar va ularning pedagogik amaliyotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sanaladi. Ushbu jarayonda pedagogik faoliyatning ko'rgazmalilik, onglilik, faollik, muntazamlilik, ketma — ketlik, nazariya va amaliyotning uzviyligi, ta'limning umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslanishi kabi xususiyatlarni namoyon etishiga e'tibor kuchaytiriladi.

Ta'limiy qadriyatlar yunalishi va mazmuni jiqtidan kuyidagi uch guruhga bo'linadi: shaxsiy, protsessual —psixologik hamda pedagogik. quyida pedagogik mazmundagi ta'limiy qadriyatlarning mohiyati bilan tanishib chikamiz. Mazkur guruhga kiruvchi qadriyatlar o'zida quyidagi jihatlarni aks ettiradi: ilmiy, pro

sessual—tasvirlash, protsessual — amaliy hamda ularga nisbatan yangicha nazariy — amaliy yondashuv.

Pedagogik mazmundagi qadriyatlarni boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga singdirishda quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

- o'quv jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuv;
- pedagogik texnologiyalar;
- o'qitishning ilqor shakl va metodlari;
- uyin texnologiyalari shuningdek, ta'lim jarayonida tarbiyalash va rivojlantirish tamoyilining ustuvorligi.

Ushbu o'rinda ta'lim mazmunining mohiyati bilan tanishib chikish maksadga muvofiqdir.

- amaliy jihatdan ahamiyatliligi;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarining mavjud ilmiy bilimlarni puxta o'zlashtirishlarini ta'minlash imkoniyatiga egaligi.

Yangi amaliy metodlar: interfaol metodlar.

Interfaol metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarning individual va yoshi xususiyatlari; bilim darajasi; shaxsning rivojlanishi qonuniyati, ta'lim jarayonining moddiy — texnik ta'minoti; o'qituvchining kasbiy maqoratiga tayangan holda qo'llaniladi.

Ayni vaktida ta'limiy qadriyatlar mohiyatidan kelib chirkan holda ta'lim turlari va usullari mazmunan yangilanmokda.

Ta'lim turlari: ma'ruza, amaliy mashqulotlar, trening, baxs — munozara, konferentsiya, ekskursiya, takdimot, bellashuv va boshqalar.

O'qituvchi mazkur jarayonning tashkilotchisi sifatida o'quvchilar bilan birgalikda faoliyat ko'rsatishi zarur, ta'lim jarayonida baqs — munozara, taqlil, suqbat, ta'riflash, hisobot va shu kabi shakllardan foydalana olishi zarur.

Rivojlantiruvchi ta'limni tashkil etish jarayonida quyidagilardan foydalanish maksadga muvofiqdir:

- savol va topshiriklar (o'qituvchi va o'quvchilarlar o'rtasida);

- yangi tushunchalarning mohiyatini ochib berish, ularni o'zlashtirishning zaruriyatini tushuntirish;
- talabalarni mantiqiy fikrlashga yunaltirish (ilmiy farazlarni ilgari surish, umumlashtirish, yakuniy xulosalarni chiqarish).

Ammo zamonaviy ta'lim jarayonida xam ogzaki bayon etish va kurgazmali metodlardan foydalanish o'kitishning asosiy metodlari hisoblanadi.

1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'limiy qadriyatlarini shakllantirishning mohiyati

Ta'lim to'g'tisida"gi qonunda, ta'limning ravnaqi, uning insonparvarligi, ta'lim va tarbiya tizimining uzluksizligini ta'minlanishi, o'quvchilarni bilim olishi uchun keng imkoniyat yaratilishidan nishonadir. Shu sababli har bir fan o'qitilishiga aloqida e'tibor berilgan "Davlat ta'lim standartlarida boshlang'ich sinfdayoq so'zlarni butunicha o'qish ko'nikmasi to'la shakllanadi"- deb qayd etilgan. Bu esa o'quvchilarning ongli va ifodali o'qishga qo'ygan talablarni o'stirish imkoniyatini beradi.

Boshlang'ich sinflarda o'qish darslari bolalarning o'qitilayotgan matn mazmunini qzlashtirish ustida must"aqil ishlashda, qikoyani voqea qodisalarining izchilligini belgilashda aloqida ahamiyatga ega. Jumladan, 3-sinf o'quvchilari uchun o'qish darslariga 170 soat vaqt ajratilgan bo'lib ular har xil bo'limlarni ttashkil etadi. Bu bo'limlardan biri "Uluqlardan o'rganmoq oqil" deb nomlanib u o'quv dasturida 19 soat berilgan.

Mazkur bo'limdan o'quvchilar o'timshda yashab, xalqi va Vatani uchun, ma'rifat ravnaqi uchun xizmat qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan tarixiy shaxslar bo'lgan buyuk allomalarimiz: Al-Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, A. Temur, A. Navoiy, Z.Bobur, A. Avloniylarning bolalikdagi jasorati, kasb-qunar, bilim egallash yo'lidagi, sa'yi-harakatlari , xalqqa ko'rsatgan hamxo'rliklari, yurt obodonchiligi yo'lidagi xizmatlari, ilm, sabr haqidagi fikrlari yoritilgan qikoya, she'r xikmatlari rivoyat va maholalari kiritilgan. Bu bo'limni o'qish davomida har bir mutafakkir ijodi bilan tanishib o'quvchi o'z tajribalariga tayangan holda moqirlik bilan ishni tushuntirish kerakki har bir o'quvchi o'zining o'tmishi, buyuk xalqning farzandi ekanligidan faxrlansin, ajdodlarimiz dunyo ma'rifatiga qo'shgan jabqalari bilan qururlansin.

Biz bu bo'limdagi birgina "Ibn Sino – ulashar davo" deb nomlangan o'gitlarni olib harasak Ibn Sino ijodi nimaga bahishlanganligi ni bilib olishimiz mumkin. Bu mavzuni o'rganish vaqtida ta'limiy maqsadga, buyuk ajdodlarimiz qanday ishlar qilgan, ular nimalar bilan shuqullanganligini qo'ysakda va tarbiyaviy maqsadiga

esa bolalar soqlom bo'lishlari uchun qanday o'g'itlarga rioya qilishlari kerak deya olish mumkin.

Mavzuni o'tish jarayonida bolalarga Ibn Sino kim bo'lgan, u qanday fanlar bilan shuqullangan, ularning eng yaqin ustozlari va shogirdlari haqida ma'lumot berib o'tishimiz lozim. Shundagina o'qituvchi o'tilgan mavzu bilan chegaralanib holmasdan, balki bu mavzu kimga bahishlangan, undan qancha foydali maslaqatlar berilgan va shu o'g'itlarga rioya qilsa soqlom va baquvvat bo'lishlari haqida ma'lumot oladilar.

“Ta'lim to'g'risida” Konunda ta'limning ravnaqi, uning insonparvarligi, ta'lim-tarbiya tizimining uzluksizligining ta'minlanishi o'quvchilarning bilim olishga keng imkoniyatlar yaratib berganidir. Unda har bir fanning o'qitilishi va o'rgatilishiga aloqida e'tibor haratilgan.

O'qish darslari orqali bolalarga o'qitilayotgan matn mazmunini o'zlashtirish aloqida va muxim ahamiyatga ega. Biz o'qish fanini o'qitishda birgina «Donolarning donosi». deb nomlangan qikoyani olib harasak. Alisher Navoiyning qayogi va ijodi faoliyati xalq obodonchiligi uchun qilgan xizmatlari inoonlarga ko'rsatgan meqr oqibat va munosabbatini bilibgina holmasdal, ulardan ibrat — namuna sifatida rivoyatlar asosida tarqbot qilish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Ibrat — namuna ta'sirida o'quvchilarda ijodiy fazllatlar shakllana boshlaydi.

O'qituvchi moqir va zukko istedad egasi bo'lishi barobarida har mavzuga mos qiziharli va didaktik o'yinlardaln foydalanishi yaxshi samara beradi.. Masalan: o'quvchilar bilan guruh — guruh kilib, “savol-javob” o'yinini o'tkazish mumkin. Savollar.

1. Alisher Navoiy qachon tuqilganq
2. U qanday ishlarni amalga oshrgnq
3. Kanday asarlar yozganq
4. Kaysi tpllarni puxta bilganq
5. U qanday inson bo'lganq
6. Xalq nima uchun Alisher Navoiyni xurmat qilganq

Shu va shunga o'xshash savollarga javob olib bo'lgach. ularning dunyoharashlarini shakllantiruvchi o'quvchilarni o'yga toldiruvchi savollar ham yaxshi natija berishi shubhasizdir.

Misol uchul: I. Siz ham ularday bo'lishni istaysizmiq

2. Ularday bo'lish uchun nima qilish kerakq

3. Uluq bobolarimiz qurmatini yana kanday joyiga qo'yish mumkin.

Bunday fikrlashga undovchi savol-javoblar o'kuvchilarda fikrlash qobiliyatini, xotirani, hayolni boyitadi va ularda fanga nisbatan qizikish yanada o'sadi. Boshlangich sinf o'kuvchilarini «O'qish» darglarida PT (Pedagogik texnologiya)larni qo'llash ulardagi fanga bo'lgai qizihishini orttiribgina krlmasdai, nugq madaniyatini ham shakllantiradi.

4. A.Navoiyning til haqidagi qikmatli so'zni toping.

a) Tilga ixtiyorsiz — elga e'tiborsiz.

b) Ona yurtning — oltin beshiging.

v) Ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas.

5. A.Navoiy shaxsiy mablaqlariga nimalar kurdirganq

a) ko'pgina xonaqoqlar, madrasalar 9 ta hammom. masjid qo'rqon.

b) bozorlar

v) karvonsaroylar

6. A.Navoiy birinchilardan bo'lib qaysi tilda “Xamga” yozdiq

a) fors tilida

b) ona tilida

v) tojik tilida

7. Kimning asarlari yaxshilikka, poklikka, marddikka chorlaydiq

a) Beruniy

b) Farobiy

v) Navoiy

8. A.Navoiy yana kanday lavozimga ega bo'lganq

- a) Vazir
 - b) Xrkim
 - v) Savdogar
9. Shoir bobomiz yana nimani ulltlaganlarq

- a) Uetozlarni
- b) Shoirlarni
- v) Savdogarlarni

10. A.Navoiy qachon va qaerda tuqnlganq

- a) 1504 y Afqoniston
- b) 1441 II qirotda
- v) 1601 y Shaqrisabzda

11. A.Navony qaysi tillarn puxta bilganq

- a) Kozoq va kirqiz
- b) Fors va arab
- v) Tojik

12. A.Navoiy hirotida nimalar bunyod kilganq

- a) Oromgoqlar, madaniyat koshonalari
- b) bozorlar
- v) karvonsarylar.

O'qiltuvchi mavzuni o'qitish jarayonida shu kabi savollarga to'xtalib,. sharqlab o'tgan bo'ladi. Nafakat A.Navoiy bobomiz, balki boshka mutafakkirlarimiz qakida ham xuddi shunday qizikarli ma'lumotlar asosida dars o'tish hozirgi kun talablariga mos keladi. Chunki o'kuvchilarim o'z ajdodlari kimq Ular nima ish kilganq kabi savollarga javob olgan va bizga holdirgan ajdodlarimizning bebaho nodir durdona asarlaridan bahramand bo'lar edilar.

O'qituvchi faoliyatini oshiruvchi asosiy vazifalardan yana biri — bu diagnostikadir. Bu vazifa o'qituvchi oldiga bolada uning qulqi va faoliyatida bo'ladigan muammolarni oldindan aniqlash imkonini beradi. Muayyan vaziyatlarda bolani har tomonlama o'rganish zarur bo'lib holganda bolaga psixolog, defektolog, logoped, tibbiyot xodimi kabi mutaxassislar masla-qatini

uyushtirish lozim bo'ladi. Ushbu vazifani amalga oshirishda o'qituvchi pedagog yordami-ga muqtoj bolalarni aniqlab, ularning kamchiliklarni tuza-tishni talab qiladi. Pedagogik ta'limning predmeti bo'lib, "Korreksion ri-vojlantiruvchi ta'lim" o'quv kursi hisoblanadi. Bu kursning umumpedagogik bo'limi 5 ta qisimni o'z ichiga oladi. Birinchi qisimda "O'quvchilarning maktabga moslasha olmasligi", bola manfaatlarini himoya qilish masalalari ko'rib chiqiladi. Ikkinchi qisimda pedagogik diagnostika masalalari, yani bolalarni maktabga qabul qilish va ularning o'quv faoliyatiga moslashuv jarayonlarining buzilishiga ba'zi xususiyatlari ochiladi. Uchinchi qisimda maxsus guruh bolalari uchun korreksion ri-vojlantiruvchi ta'lim shakllari ochib beriladi. To'rtinchi qisimda korreksion ta'lim jarayonining maqsad va vazifalari, uning pedagogik jarayoni o'quv rejasi va maktab kun tartibining o'ziga xos xususiyatlari, darslarga qo'yilgan talablar, bolaning o'zlashtirish qobiliyati, ta'lim samara-dorligi kabilar yoritiladi.

Va, nihoyat, beshinchi qisim "Maxsus guruh bolalari bilan ishlashda ta'lim jarayoni sub'ektlarining o'zaro munosabatlariga haratilgan. Maktabning psixologik-pedagogik konsilium ishlarini o'zaro beradi, hamda maktab va oila xamkorligini ta'minlaydi.

Kursning aloqida qisimlarida bola ongini rivojlantirishda, o'quvchilarning ruqiy va jismoniy rivojlanishidaga kam-chiliklarining oldini olish masalalari, ogzaki va yozma nutqni o'quvchilarda shakllantirish kabi masalalarga ajratilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bola maktabga ilk qadam qo'yishi bilan uning hayotvda muhim bosqich boshlanishi, u yaigi ijtimoiy mavqeiga, ya'ni o'quv-chiga aylanishi, unga yangi talablar qo'yilishi, maktabdagi turli faoliyatlarda harakat qilishi o'qituvchining e'tiboridan chetda holmasligi kerak. Maktab bola uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishi kerak. Bolani o'z vaqtida o'qishga tayyorlamaslik, o'qish qobiliyatini shakllantirmaslik, korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim joriy qilmaslik yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bola o'quvchilik davri uchun zarur bo'lgan ba'zi bir qonuniyatlarni o'z vaqtida aniqlab etmasa, unda qator ruqiy holatlar kelib chihishi mumkin, ya'ni bolada men ham yaxshi o'qiy

olamanmi, o'ртоqlarim bilan do'stlasha olamanmi, o'qituvchining e'tiborini qozonamanmi degan qator savollar tuqilishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining maktabda fanlarni yomon o'zlashtirishi, ularning aqliy holatini etarli tarzda rivojlanmaganligi bilan emas, balki maktab ta'lim jarayoniga etarlicha tayyor emasligidan kelib chiqadi.

Shunday qilib, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berip bilan bir qatorda ularning sinf va maktabdan tashhari faoliyatini tashkil qilish, kompensatsiyalashgan ta'limga jiddiy e'tibor haratish, barkamol insonni tarbiyalashdagi madaniy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshiradi.

Milliy udum, urf-odat, an'ana va bayramlarimiz ming yillar mobaynida mashaqqatli turmush sinovlaridan o'tib sayqal topgan. Xalqimizning marjon kabi tovlanib turuvchi o'ziga xos hayot odatlari, ichki intizomi, qalb madaniyati, iffati, or-nomusi, nozik tabiati insonparvar fazilatlari bor. Bular xalqimizning hayoti qonuni bo'lib, ularni biror kimsa yoki qukmador yaratmagan yoki farmon qilmagan, balki hayot to'siqla-ridan o'tib xalqimizning qon-qoniga singib, urf-odat va an'analar darajasiga ko'tarilgan.

Birgina o'zbek oilasida farzand tuqilishi va uning tarbiya-si bilan boqliq udum va marosimlar, urf-odatlarni olaylik. Xalqimiz farzavd xoq o'qil, xoq qiz bo'lsin hayotimizning guli umrning quvonchi, belning quvvati, kelajak umidimiz deb yangi meqmonni o'ta e'zozlaydilar. Unga barishlangan birinchi maro-sim farzand qulogaga azon aytirish va chaholoqqa chiroyli ism qo'yishdir. Navbatdagi inson zotini uluqlash uni beshikka solish, beshik to'yidir. Mazkur marosimlarni kuzatgan, ularda bevosita ishtirok etgan yosh o'qil-qizlar o'zlarini nafaqat asta-sekin ijtimoiy hayotga va oilaviy turmushga tayyorlab boradilar, balki ular ongida ajoyib marosimlarimizga nisbatan qizihish, qurmat, ma'naviy qadriyatlarimizni e'zozlash kabi xislatlar o'z aksini topadi.

Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayoni sharqona tarbiya bilan uyg'un holda olib borilsa, yoshlarda milliy ong, milliy qurur kabi tuyqular urishi bilan birga ularning odob-axloqi, xulq-atvorida ham ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Maktab, bog'cha va boshqa ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan qaysiki ma'naviy-ma'rifiy tadbir

bo'lmasin, albatta o'quvchilarning yor-yorlari allalar, dostonlari xalq qo'shiqlariga taqlidsiz o'tmagan. Yuqoridagi fikrimiz asosida muloqaza yuritadigan bo'lsak, o'quvchilarning to'y va ma'rakalarda ishtirok etishi, udum va marosimlarni kuzatishi muzey va tabarruk qadam-joylarni ziyorat qilishlari, urug', sulola, shajara nima ekan-ligini to'la anglashlari o'ta muhimdir.

Tartibli, maktabda adob-axloq saboqlarini yaxshi uqib olgan o'quvchilar ko'pchilikning qurmatiga erishib, ota-onasiga, tarbiya bergan ustozlariga el raqmatini olib beradilar. Shulardan kelib chiqib azaliy odatlarimizga ko'ra o'quvchilar to'y-tantanalarda tegishli xizmat (o't yohish, choy, oziq-ovqat tashish, qo'lga suv quyish) larga tayyor turishlari va topshirilgan yumushlarnisidqidildan bajarmoqi lozim. Yoki kattalar qatori bellariga belboq taqib, xizmat joylarida qo'llarida choynak, sochiq bilan tursalar buning nimasi o'rinsizq

Urf-odatlarimizdan yana biri- nonni e'zozlash. Chunki non bilan boqliq urf-odatlarining o'zi bir jaqon. Chaqaloq, qatto kattalarning ham yostiqi ostiga non qo'yishlarida, nonning ustiga boshqa narsalarni qo'yish, nonni ustidan sakrash qurmat-sizlik ekanligini, uni turli joylarga tashlash gunoq xisoblanishini barchamiz yaxshi bilamiz. Afsuski, xalqimizning ming yillar davomida nonga bo'lgan munosabatida, nonni qadrlash, e'zozlash kabi odatlarimizga amal qilishda ba'zan kamchiliklarga yo'l qo'yilmokda. Buni o'quvchilarning maktab oshxonasidan va bufetidan non va non maqsulotlarini ehtiyojidan ortiq darajada olib, iste'mol qilinmagan bo'laklarini yo'lda, deraza tokchalarida, parta va stol ostida holdirib ketishlari, ularda nonga bo'lgan ijobiy munosabat yoki qurmatning shakllanmaganligi emasmiq Eng muhimi esa bunday noqush holatlarning oldini olish va o'quvchiga tanbeq berib, uni bu yo'ldan qaytishga undamoq darkor.

Bolalarda onaga, bolaga, holaversa, Vatanga mexr-muqabbat tuyqusining namoyon bo'lishida onaning seqrli allasi muhim ahamiyatga ega. Onaning farzandlarga alla orqali ifodalangan dastlabki his-tuyqusini, murqak qalbga tabiat, zaxmatkash xalq, betakror jannat misol boq-roqlar to'g'tisidagi timsollarni, ilk taassurotlarni izqor qiladi. Masalan, o'qituvchi dars jara-yonida yoki darsdan tashhari tadbirlarda o'quvchilarga alla, yor-yor, terma, dostonlardan parchalar

to'plashni buyuriish mumkin. O'quvchilar bunday qiziharli topshiriqni bajarishga doimo tayyor. Ular maqallada, shaharcha yoki hishlokda istiqomat qiluvchi onaxonlar, keksa buvi va buvalari bilan suqbatlashib, ona allasi-ning jozibalilarini qogozga tushirib keladilar. Bu usul, ay-niqsa qizlar tarbiyasida muhim omildir. Chunki qiz bola alla aytish va bolani tarbiyalashni onasidan, buvisidan o'rganadi.

Maktabda o'qituvchi, ayniqsa tarix va til adabiyoti, odobnoma o'qituvchilari unga sayqal berib, ilmiy yo'nalish, to'g'ti tu-shunchalar orqali o'quvchining ma'naviy harashlarini yanada boyitmoqimiz lozim.

Xuddi shu kabi xalq oqzaki ijodining yana bir ajoyib namunasi dostonlar, laparlar, xalq qushiqlari ham o'quvchilar tomonidan to'plansa, yosh baxshilar tomonidan kuylansa, unga kim ham maxdiyo bo'lmaydi, deysiz.

O'zbek xalqining qo'shiqlari, laparlari, allalari milliy turmush tarzi, mashqulot turini aks ettiradi. Ular o'zining sho'x va o'ynoqligi, hamgin va vazminliligi, marosim-bopligi bilan ajralib turadi. Chunki ular zamirida buyuk falsafa, xalqimiz o'tmishi, quvonchu-tashvishlari va ma'naviyati mujassam. Bu esa yoshlar dunyoharashida ma'naviy merosimizga xurmat va milliy mafkura tamoyillarini shakllantirishda muxim o'rin tutadi. Maktabda tarbiya jarayonida bolalar ongi-ga singdiriladigan urf-odatlar, an'analarga rioya qilish yo'l-yo'riqi zerikarli, suqbatdan iborat bo'lib holmasligi kerak. Aksincha, eng yaxshi omillardan biri aynan shu udum va marosimlarni kuzatish, unda ishtirok etish, tarixiy o'lkashunoslik to'garaklarida xalq orayada tadqiqotlar uyushtirish, aniq hayotiy omillarni taqlil qilish orqali to'g'ri tushuncha va ta-savvurlarni qosil qilishdir. Bunday, bilimlar, ayniqsa, etnografiya, tarix, til va adabiyot, odobnoma, musiqa, din tarixi kabi fanlar mazmunidan kengroq o'rin oladi.

Sharqona udumlarimizning yana bir turi bu oilada, harin-doshlar, qo'ni-qo'shnilar orasida mavjud bo'lgan, uzoq vaqg-lardan buyon yashab kelayotgan irimlardir. Irimlarga kishilar o'zlarini, yaqinlarini, oilasini eqtiyot qilish, yomon ko'zdan asrash uchun ishonadilar. Uyga, beshikka, mashinaga tumor ta-hish, isiriq tutatish, taqa qohish, kiyik, qo'chqor shoxi yoki kallasini osib qo'yish, qaychi jaqini ochiq holdirmaslik, tuvda tirnoq olmaslik, nonni teskari qo'ymaslik, ko'z

uchi-shi kabilar irim odatlaridir. Ba'zilar irimlarni xurofot, bid'at, eskilik sarqiti deb, qo'l siltab undan yuz o'giradilar. Ularning zamirida xalqimizning fe'l-atvori, ichki xissiyoti ruqiy holati, ishonuvchanligi, ma'naviy dunyosi bilan alo-qador hayotda ko'p bor isbotlangan va sinovdan o'tgan xodisa-lar mujassamdir. Balki ular ham qizihishga, muxofaza etish-ga, yoshlarni ham o'rgatishga, qurmatlashga arzirlik odatlar-dir. Balki tarbiyaviy soat, odobnoma,- ma'naviyat darslarida o'quvchilarga irimlarga beparvo bo'lmaslikka, ularni masxa-ralab, kamsitib kulmaslikka, mazmunini uqtirish lozimdir. Chunki ota-onamiz, buvi-buvalarimiz unga amal qilyaptimi, demak, unda bir haqiqat, unda bir mazmun va ma'no mujassam. Xalqimizda biror erga safarga chiqadigan bo'lsak oldin qovlini supurib, tozalab so'ng chihishadi yoki kishi orqasidan qovli supurilmaydi, qadimgilar qo'l-oyoq tirmoqlarini bir kunda olnshmagan. Chap ko'zingiz uchsa, qavotirlanasiz, o'ng ko'zingiz uchsa suyunasiz, deb o'ylaysiz va qokazo.

Farzandlarimiz ongida ana shunday xususiyatlarni shakllantirishda avvalambor ota-onalar, maktab, kollej, litsey, oliy o'quv yurtlari, maqalla va boshqa jamoat tashkilotlari, barcha mas'uldir. qachongacha xoq talaba, xoq o'quvchi bo'lsin o'qituvchi yoki muallim majburlasa yoki bosh bo'lsa, qasharga chihimiz. Odatimizga ko'ra qadimda hasharga desa 7 yoshdan 70 yoshgacha barcha ko'chalarni tozalash, ko'chatlar ekish, ariqlar tozalash, ko'prik qurish, masjid, madrasalarni tartibga keltirish, shifoxonalar qurish kabi yumushlarga bab-baravar otlanganlar. Ko'p guvoq bo'lamiz maqallada biron yumush bo'lsa yoshlar qaerda kinoda, parkda, diskotekada yoki o'zi uchun ma'qul biron mashqulot bilan band bo'lishadi. Mayli sayr yoki madaniy xordiq ham o'z yo'liga, bu bilan biroq bir narsa de-moqchimasiz. Lekin, har bir xalqning barcha uchun barobar o'z odat, an'analari mavjudki, ular shu millatning ma'naviyatini, qadriyatlarini, o'zligini namoyon etib turadi. Urf-odatlar ham ana shu buyuk merosning bir bo'lagidir.

Ta'limiy qadriyatlar jamiyatda kechayotgan ijtimoiy o'zgarishlar asosida yuzaga keladi. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ta'limiy islohotlar malakali kadrlarni tayyorlash tizimini tubdan kaita

shakllantirishni taqozo etadi. Ayni vaktida ta'lim jarayonini tashkil etish, mutaxassislarning chukur kasbiy bilim va malakaga ega bo'lishlarini ta'minlovchi ilqor, texnologik xarakterdagi yondashuv qapop topdi. Yoshlarda bilim o'rganish hamda muayyan kasb yoki xunar sirlarini uzlashtirishga nisbatan ijobiy munosabat shakllandi.

Ta'limiy qadriyatlar shaxs tomonidan individual qimmatining tuqri baxolanishi, tan olinishi, shaxs sifatida namoen bulishi, shuningdek, o'ziga xoslikning saqlanib kolishini ta'minlovchi sharoitlarni yaratadi. Umuman aytganda, tabiiy imkoniyatlarini ochib berish, xayotiy vazifalarni amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish lozim bo'ladi.

Shunday qilib, shaxsning erkin rivojlanishini ta'minlash ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosida ro'y beradi.

Ta'lim ijtimoiy pedagogik tizim sifatida, talabalarning shaxsiy qizihishlari, xayotiy maksadlarini rivojlantiruvchi, erkin, individual ta'limni tashkil etish uchun sharoit yaratadi. Bu holat zarur darajada o'quvchilarga bilimlar berishni yo'lga qo'yish bilan ta'minlanadi. Ushbu jarayonda shaxsning individualligi va takrorlanmasligini e'tibordan chetda holdirish mumkin emas. Demak shaxsni, uning rivojlanishini xamma bosqichlarida kuzatib borish zarur. Shaxsning rivojlanishi ta'limning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, u individual xususiyatlar negizida qaror topadi. Xar bir boshlang'ich sinf o'quvchisining o'z rivojlanishi, shaxsiy yulini tanlash xuquqini tan olish (o'qishning moslashtirilgan va variativ shakli, metod va vositalari bilan) lozim.

O'qitishni individuallashtirishda o'quvchilarning qobiliyatlari, iste'dodlari, qizihishlari, qadriyatlari yunalishi va shaxsiy tajribasiga e'tibor haratiladi. Talabaning o'zlashtirishdi va ta'lim olish faoliyatida namoen eta olish imkoniyatlari xisobga olinadi.

Ta'lim mazmuni, uning metodlari, vositalari shunday kurilishi zarurki, o'quvchi o'quv materiallarini, uning turi va shaklini tanlab olish imkoniyatiga ega bo'lsin (ta'lim berish individual dasturlari ishlab chiqilmoda).

Ta'lim olish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari shaxsining an'anaviy — axloqiy va intellektual sifatlarini yuzaga keltiruvchi ma'lum bilim, maqorat va qobiliyatlarni egallaydilar. Ta'lim jarayonining asosiy maqsadi va natijalari ham ana shulardir.

Shunday kilib, ta'lim tizimini isloh etish jarayonida yangi qadriyatlar shakllandi. Turli faoliyat yunalishlarida o'zini idrok etish, o'zini namoyon etish uchun zarur sharoitlarni yaratish maqsadga muvofiq. Bu yo'lda amalga oshiriluvchi tuqri yul-bu pedagogikada hamkorlik, o'zaro aloqalar, o'z hissasini qo'shish va o'zaro yordamdan iboratdir. Xususan, zarur pedagogik vaziyatlar yaratishda hamkorlikda faoliyat yuritish tamoyili — demokratiya, ishonch, bir — birini tushunishga amal kilib va individual qizihishlarini qabul qiladi. Ta'limiy qadriyatlar uni insonparvarlashtirish, o'quvchilarning qobiliyati va iste'dodlarini ochib berishga haratilgan.

Ta'limni insonparvarlashtirish boshlang'ich sinfdanoq o'quvchining bilimga intilishini kuchaytiradi, uning ijodiy izlanishi va imkoniyatlarini oshiradi.

Ta'limni insonparvarlashtirish — o'quvchi uchun uning intellektual, ma'naviy — axlokiy imkoniyatlari, shaxsiy imkoniyatlarni ro'yobga chiharish yo'llarini topish usuli, mexanizmidir. Ta'limni insonparvarlashtirish o'quvchini erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlovchi shaxsga aylantiradi.

Insonparvarlik qoyalari munosabatlarning uyqunlashuvi uchun sharoit yaratibgina holmay, balki o'qituvchi (pedagog)ga tarbiyalanuvchi bilan shaxsiy aloqalar mazmunini tushunishga yordam beradi. Ta'limning yangi qadriyati uni insonparvarlashtirishdir.

O'quvchilarda keng dunyoharash, yuksak ma'naviyat, erkin fikrlash qobiliyatini shakllantirish lozim. Bu o'zini anglab etish, faoliyat jarayonida o'zini urganishga yunaltiradi xamda faoliyat usullarini izlash, ularning moxiyatini anglash va samarali bo'lishinim ta'minlaydi. Insonning o'z «Men»i (g'urur) mazmuni qaror topadi. Shaxs, uning yagonaligi haqida tasavvur paydo bo'ladi. Gumanizm va insonparvarlashtirishga asoslangan ma'lum ta'lim berish jarayoni, mutaxassis shaxsi, uning dunyoharashi yaxlitligini ta'minlab, ijtimoiy — gumanitar

fanlar va ixtisoslashtirilgan darslarni o'qitish odatiy vazifalarini ancha kuchaytiradi .

Ta'limiy qadriyat — ta'limning milliy yo'nalganligi, uning milliy tarix bilan uyqunligi, O'zbekiston xalqlari madaniyatini asrash va boyitish, ta'limning milliy rivojlanishning muxim vositasi ekani, boshqa xalqlar tarixi va madaniyatini xurmat qilishdan iboratdir.

Pedagogik ta'limni munosabatlar madaniyati bilan boyitish zarur. Ta'limning tashkil etilishi va mazmunida o'quvchi va o'qituvchi o'zaro munosabatlariga — moyili asos qilib olinishi kerak. O'qituvchi o'quvchini ma'naviy ximoya qilishi, turli salbiy qodisalardan asrashi borasidagi zarur ma'lumotlarga ega bo'lish maqsadga muvofiq (maxsus usul va tarbiyaviy texnologiyalar talab etuvchi pedagogik himoyalash). Jamiyatning ma'naviy yangilanishi kasb-qunar va hayotiy yulini tanlash kabi ta'lim qadriyatini vujudga keltiradi. Bu erda ta'limning haqiqiy sharoitlarida qadriyatlarni taxmin qilish, asoslash va bularning hammasini ijtimoiy kontekstda turli qal etish muhimdir.

Ta'limiy qadriyatlardan yana biri-shaxsni ijtimoiylashtirish va uning ijtimoiy — madaniy qadriyatlarini qayta tiklab, ijodiy faoliyatini tashkil etish, shuningdek, o'kuv yurti, jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlashdan iborat.

Bu qadriyatlar zamonaviy shaxsni shakllantirish maqsadiga haratilgan jarayon orkali rivojlanib, yangi ijtimoiy qadriyatlarning shakllanishida asos bulib xizmat kiladi.

Yangi ijtimoiy qadriyatlar ta'dimiy dasturdarni yaratish yoki amaldagilarini takomillashtirish, xalkning boy intellektual, ma'naviy

- axlokiy merosi, umuminsoniy qadriyatlari, fan va texnika, texnologiya va madaniyatning ilqor yutuqlari asosida pedagogik va axborot texnologiyalarini yaratish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Ikki bosqichli oliy ta'lim (bakalavriat, magistratura) o'qitish, mustakil ta'lim olish, masofadan o'qitish tizimini individuallashtirishni, ta'limning insonparvarlikka yunalganligini

ta'minlashni kuzda tutadi.

Ta'limni rivojlantirish tizimining yangi yuli — bu xalkning boy, uziga xos madaniy — tarixiy an'analariga, umuminsoniy qadriyatlarga, milliy va jaqon pedagogika fani yutuqlariga, ma'naviy va madaniy qadriyatlariga murojaat etishdir.

Zamonaviy ta'lim - bu shaxsning ijtimoiy, shuningdek, ta'limiy qadriyatlarga ongli munosabatda bo'lishi, kasbiy, ijodiy, ma'naviy — axlokiy va shaxsning jismoniy imkoniyatlarini shakllantirishga karatilgan «innovatsion» ta'limdir.

Ta'limning yangi qadriyati — «innovatsion» ta'lim kuyidagi masalalarni xal etadi:

- analitik kobiliyatini yuzaga keltirish; xodisalarni oldindan kura bilish kobiliyatini tarbiyalash;
- shaxsiy extiyojlardan boshlab umumbashariy muammolar darajasida ijtimoiy axamiyatga ega bulgan, kasbiy axamiyatga ega bulgan muxim karorlarini kabul kilish.

Shunday kilib, ta'limiy qadriyatlar fakatgina erkin emas, balki mas'uliyatli shaxsni shakl — lantirishdan xam iboratdir.

Navbatdagi ta'limiy qadriyat-avlodlarni birlashtirish, hamkorlikda faoliyat yuritish, o'zaro foydali munosabatlarni tashkil etishdan iborat. Ushbu ta'limiy qadriyat tarbiyalanuvchi shaxsni rivjlanirishning muhim pedagogik vositasi hisoblanadi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'limiy qadriyat sifatida fukarolarning xukukiy madaniyatini shakllantirish, jamiyatda qonunlarning ustuvorligi qoyalari ilgari surilgan. Yuqorida qayd etib o'tilgan fikrlarga tayangan xolda ta'limiy qadriyatlarni kuyidagi turlarga ajratish mumkin:

- global kontseptual — ta'lim qadriyatlari;
- aniq — ta'lim qadriyatlari;
- ta'limning individual — shaxsiy xarakterdagi qadriyatlari;
- innovatsion pedagogik texnologiyalar — umum — bashariy (global) — kontseptual ta'limiy qadriyatlar;
- shaxsny shakllantirish;

- ta'limning demokratik va gumanitar yunal — ganligi;
- insonparvarlik, shaxe dunyokarashini shakllantirish.

Ta'limiy qadriyatlar o'z mohiyatiga ko'ra ma'naviy — axloqiy kasbiy hamda ijtimoiy qadriyatlar sifatida guruhlanadi xamda umummadaniy, ma'naviy — axlokiy, estetik, intellektual va ijodiy yunalishga ega bo'ladi.

Ta'limiy qadriyatlar mazmunida shaxsiy - individual xususiyatlar namoyon buladi. Ana shu xususiyatlarga tayangan holda oliy o'kuv yurtlari xamda pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida ulardan o'rinli hamda maqsadga mu-vofiq foydalanish taqozo etiladi.

Boshlang'ich ta'limda ta'limiy qadriyatlarni shakllantirishda quyidagilarga aynan e'tibor berish joiz:

- inson omiliga e'tiborli bulish, shaxe, uning individualligini xisobga olish;
- yaxlit, maqsadga yunaltirilgan tizimda tarbiyalash;
- tarbiyaning insonparvarlik yunalishini kuchaytirish;
- ruxiy, ma'naviy, badiiy — estetik, milliy va umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish;
- ma'naviy — axlokiy tarbiyaning muximligi;
- ijodiy, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash;
- Shark mutafakkirlari va xalq pedagogikasi royalaridan unumli foydalanish;
- ijtimoiy yunaltirilgan, tarbiyaning yangi pedagogik va axborot texnologiyalari;
- ta'limning ob'ekti va sub'ekti, o'z — o'zini takomillashtirish.

Ta'limiy qadriyatlar Davlat ta'lim standartlari, ta'lim, ukuv dasturlari va rejalari, darslik, ukuv metodik adabiyotlar mazmuni, shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalar moxiyatida uz ifodasini topa olishi zarur. Ta'lim jarayonida shaxsni, eng avvalo, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, uning rivojlanishi uchuy sharoit yaratib berish talab etiladi. Shu bois mustakil ta'lim olish, uz —uzini tarbiyalash, uz —uzini rivojlantirish va ijtimoiylashtirishni birga olib borish takozo etiladi. Rivojlanishning zamonaviy boskichida jamiyat tomonidan uzluksiz ta'lim

tizimi oldiga pedagogik faoliyat mazmuni, uning asoslari, ta'lim — tarbiya natijalariga nisbatan jiddiy talablarni kuymokda.

Jamiyatda ijtimoiy qadriyatlarning almashuvi pedagogika oldiga tez uzgarayotgan jamiyat sharoitida an'anaviy ta'lim mazmuniga uzgartirishlar kiritishni xam taqozo etmokda.

Axborot texnologiyalaridan an'anaviy o'kuv jarayonida foydalanish bo'lajak o'qituvchining kasbiy — pedagogik qiyofasini ancha samaraliroq shakllantirishga imkon beradi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da18 axborot texnologiyalar zamonaviy ta'limning muxim qadriyati sifatida e'tirof etilgan. Ular kuyidagi o'kuv manbalari asosida tashkil etiladi: lugat, entsiklopediya, mutafakkirlarning asarlari, xalk pedagogikasi goyalari, maxsus telekursatuv va radio eshittirishlari xamda kompyuter ma'lumotlari.

O'quvchilarga axborot texnologiyalari xizmatidan foydalanishga oid bilimlar quyidagi metodikalar asosida beriladi:

- psixologiya, pedagogika, etika, estetikaga oid luqatlar hamda entsiklopediyalar bilan ishlash; psixologik va pedagogik tushunchalarning mohiyatini yorituvchi ilmiy, ilmiy — metodik va ommabop adabiyotlardan foydalanish;

- muqobil tushuncha va ifodalarni anglash (chunonchi, shaxe va uning rivojlanishi, kasbiy — pedagogik munosabatlar mazmunini ochib berish)ga yunaltilgan ta'limiy mashqulotlarni tashkil etish

- eng muhim tushunchalarni aniklash yo'lida quyidagi harakatlarni tashkil etish maqsadga muvofiq:

- terminlar, tushunchalar, mashqur iboralar xamda shaxsiy muloqazalar bo'yicha pedagogik so'zlik (ma'lumotnoma)lar, luqatlar tuzib borish;

- xalk pedagogikasini o'rganish, xalq ogzaki ijodi namunalari mazmunida yoritilgan didaktik karashlardan iborat majmuani yaratish;

- psixologiya, pedagogika, ma'naviyat mavzularidagi telekursatuv va radio eshittirishlari bilan tanishib borish;

- zarur kompyuter ma'lumotlarini yirish va ulardan foydalanish.

Izlanishlar jarayonida o'quvchilarga axborot — pedagogik, kontseptual — pedagogik bilimlar, tarixiy — pedagogik, nazariy — pedagogik, nazariy — amaliy, psi — xologik — pedagogik xamda «lugat — tushuncha»lik, kas —

— pedagogik ma'lumotlarni olishga karatilgan faoliyatni individual rejalashtirish taklif etiladi.

Voqe-munozara, muhokama, bellashuv, ko'rik, musobaqa xamda «quvnoqlar va zukkolar klubi» (KVN) tashkil etish.

Ma'lumotlarga boy axborot materiallarining mazmuni o'rganiladi, taqlil etiladi, umumlashtirildi hamda ular asosida yagona xulosa chikarildi. Ulardan ma'ruza, hisobot va referatlar tayyorlashda, o'quvchilar konferentsiyalarida chikishga tayyorlanishda foydalanish maksadga muvofiqdir.

II BOB. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TA'LIMY QADRIYATLARNI O'RGATISHNING SHART-SHAROITLARI

2.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'limiy qadriyatni o'rgatish metodikasi

Sharq mutafakkirlarining asarlari hamda xalk pedagogikasi mazmunida o'z ifodasini topgan mehr — shafqatlilik, halollik, kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, tinchliksevarlik kabi sifatlarni talabalarda tarbiyalash orqali ham ularning ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy kamolotini ta'minlashda muhim qadam sanaladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini komil inson qilib tarbiyalashni talabalar ongiga singdirishda qomusiy olimlar, donishmand, faylasuflar, shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar, xalq qahramonlari, davlat arboblari, hadis ilmi sohiblarinining ijodi va faoliyati ibrat–namuna qilib ko'rsatish shak shubxasiz o'z natijasini beradi.

Yoshlar ongiga shaxs ijodiy kamolotiga oid ma'lumotlarni yetkazish orqali ularni ijodiy kamolot sari intilishiga yo'naltiriladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida rivojlanish yo'lini tanlagan ilk kundan boshlab yoshlarni har tomonlama yetuk barkamol avlod qilib tarbiyalashga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan ta'lim sifatiga yangicha yondashuv orqali ta'lim mazmuni boyitilib borilmoqda.

Bu haqda «Donishmand Suqrot naql qiladi: «Tarbiya qiyin ish va tarbiya shart–sharoitlarini yaxshilash – har qanday kishining ham muqaddas burchlaridan biridir, chunki o'zini va tevarak atrofdagilarni ma'lumotli qilishdan ko'ra muhimroq ish yo'q». Donolar topib aytadi. Zero, har qanday jamiyat taraqqiyoti, inson kelajagining istiqboli, ayni ta'lim–tarbiya masalasiga borib taqalishi haqiqat. Shu nuqtai nazardan, bugun yurtimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun–mohiyati kundek ravshan» .

Bunday muhim ishni, diyorimizdagi barcha xalqlar ma'naviy yuksalishining muhim omili bo'lgan bolalarni boshlang'ich maktabdanoq (qaftaning dushanba

kuni Davlat bayroqini baland ko'tarib, Davlat madhiyasini aytib dars o'tishdan boshlaboq) ozodlik va mustaqillikni anglash hamda ularni qadrlash ruqida tarbiyalash, tarixiy–milliy xususiyatlarimizga mos keladigan ta'lim tizimini yaratish orqali amalga oshirilmoqda. Bunda ayniqsa, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni xalqimizning an'analarini, madaniyati va ilm–fan bobidagi ko'p asrlik tajribalarini o'rgatish ijobiy pedagogik samaralarni beradi. Shuning bilan birga jamiyatimizda yashovchi har bir ongli kishi, mustaqil va yerkin fikrga yega bo'lgan shaxs va fuqarolik jamiyati ma'naviyatini shakllantirish va shu asosda rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining asosini tashkil yetadi. Shu sababli ham

Zamonaviy pedagog kadrlarni tayyorlashda **shaxsiy— kasbiy xususiyatga** ega bo'lgan quyidagi ta'limiy qadriyatlarni aloqida qayd yetish maqsadga muvofiqdir:

- o'zini tarbiyalash, muayyan farliyatni tashkil yetish, o'z —o'zini boshharish, o'z —o'zini kuzatish, nazorat qilish, aniklash, ifoda yetish, baholash va o'z — o'ziga hisobot berish;
- pedagogik faoliyatning individual xususiyatini namoyon yeta olishi (pedagogik amaliyot davrida);
- bo'lajak o'qituvchining o'zi qakidagi tasavvurlari tizimi bo'lgan «Men» konsepsiyasi.Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi, pedagogik faoliyatni tashkil yeta olish layoqatiga yegaligi, tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilish jarayonini nazorat qilib turishi, taqlil qilishi va baholab borishi lozim.

Bo'lajak o'qituvchilarda ta'limning yangi konsepsiyasi, shuningdek, didaktik qoyalar va ularning pedagogik amaliyotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sanaladi. Ushbu jarayonda pedagogik faoliyatning ko'rgazmalilik, onglilik, faollik, muntazamlik, ketma — ketlik, nazariya va amaliyotning uzviyligi, ta'limning umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslanishi kabi xususiyatlarni namoyon yetishiga ye'tibor kuchaytiriladi.

Ta'limiy qadriyatlar yo'nalishi va mazmuni jiqtidan quyidagi uch guruhga bo'linadi: 1. shaxsiy, 2. prosessual —psixologik hamda 3. pedagogik. Quyida pedagogik mazmundagi ta'limiy qadriyatlarning mohiyati bilan tanishib chikamiz. Mazkur guruhga kiruvchi qadriyatlar o'zida quyidagi jihatlarni aks yettiradi: ilmiy, prosessual—tasvirlash, prosessual — amaliy hamda ularga nisbatan yangicha nazariy — amaliy yondashuv.

Pedagogik mazmundagi qadriyatlarni boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga singdirishda quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

- o'quv jarayoniga nisbatan innovasion yondashuv;
- pedagogik texnologiyalar;
- o'kitishning ilqor shakl va metodlari;
- uyin texnologiyalari;
- intellektual — ijodiy va bilish faoliyatini faollashtirish;
- ilmiy tadqiqotchilik ishlari, shuningdek, ta'lim jarayonida

tarbiyalash va rivojlantirish tamoyilining ustuvorligi.

Ushbu o'rinda ta'lim mazmunining mohiyati bilan tanishib chikish maksadga muvofiqdir.

- amaliy jihatdan ahamiyatliligi;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarining mavjud ilmiy bilimlarni puxta o'zlashtirishlarini ta'minlash imkoniyatiga yegaligi.

Yangi amaliy metodlar: interfaol metodlar.

Interfaol metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarning individual va yoshi xususiyatlari; bilim darajasi; shaxsning rivojlanishi qonuniyati, ta'lim jarayonining moddiy — texnik ta'minoti; o'kituvchining kasbiy maqoratiga tayangan holda qo'llaniladi.

Ayni vaktida ta'limiy qadriyatlar mohiyatidan kelib chirkan holda ta'lim turlari va usullari mazmunan yangilanmokda.

Ta'lim turlari: ma'ruza, amaliy mashqulotlar, trening, baxs — munozara, konferensiya, yekskursiya, takdimot, bellashuv va boshqalar.

O'kituvchi mazkur jarayonning tashkilotchisi sifatida o'quvchilar bilan birgalikda faoliyat ko'rsatishi zarur, ta'lim jarayonida baqs — munozara, taqlil, suqbat, ta'riflash, hisobot va shu kabi shakllardan foydalana olishi zarur.

Rivojlantiruvchi ta'limni tashkil yetish jarayonida quyidagilardan foydalanish maksadga muvofiqdir:

- savol va topshiriklar (o'qituvchi va o'quvchilarlar o'rtasida);
- yangi tushunchalarning mohiyatini ochib berish, ularni o'zlashtirishning zaruriyatini tushuntirish;
- talabalarni mantiqiy fikrlashga yunaltirish (ilmiy farazlarni ilgari surish, umumlashtirish, yakuniy xulosalarni chiqarish).

Ma'lumki, jamiyat ma'naviy hayotini rivojlantirish o'sha jamiyatda faoliyat ko'rsatuvchi kishilarning intellektual saloqiyati: ma'naviyati va ma'rifati, madaniyati va san'ati, ilm-fani va ta'lim-tarbiyasi to'g'rtisidagi bilim (tushuncha)larning nechoqlik ilmiy asoslanganligi, to'g'rti nazariy va amaliy negizlar asosida shakllanganligiga boqliq. Shu sababli ta'limiy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilariga:

- o'quvchilardagi qobiliyatlarni erkin yuzaga chiqara olish;
- ijobiy (axloqiy, mas'uliyat, qat'iyat, iroda, jasorat, meqr-muruvvat va shu kabilar) sifatlarni milliy va fuqarolik his-tuyqusini hamda milliy g'ururni o'stirishga erishish;
- ilmiy dunyoharash va ye'tiqod; ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zarurlarni chuqur tushunish, ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash; ijtimoiy siyosiy faollikni tarbiyalashga tayyor holda bo'lishga yerishish va shu kabilar.

Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarining har tomonlama rivojlanishga zamin yaratishi, ya'ni ularni o'qishga, ta'lim olishga qiziqtirish va ishtiyoq uyqotish bilan birga ularning idrok yetish, fikrlash qobiliyatlarini, dunyoqarashini kengaytirish kabi sifatlarini o'stirishga o'z kasbiy faoliyatini to'liq safarbar yetmoqi lozim. Bunda ular o'z o'quvchilarining ruqiy holati va imkoniyatlari, layoqati, yetukligi (yoshi nuqtai nazaridan), ma'naviy yehtiyoji, yashash muqiti (oiladagi turmush

tarzi va ular yashaydigan jamoa – maqalladagi muqit umumsoqligi) kabi omillarni ye'tiborga ola bilish qobiliyatiga yega bo'lmoqi lozim.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z kasbiy soqalarida quyidagi xislatlarga yega bo'lishi lozim bo'ladi: - o'z o'quvchilarini sevisht; - o'z kasbini e'zozlash; - ta'limni hayotiy ehtiyojiga aylantirish; - kuzatuvchan bo'lish; pedagogik madaniyatga ega bo'lish; - sinchkov bo'lish; - pedagogik taktikaga ega bo'lish hamda tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lish; - adolatlili bo'lish; - talabchanlik va qat'iyatlilikni uyg'un holda olib borish; -o'zini idora qilishlik;

Yuqoridagi hislatlar ta'limiy qadriyat sifatida umuminsoniy qadriyatlar bilan ta'minlanadi.

Umuminsoniy qadriyatlar: «Odamzodning yashashi, umrguzaronligi, farzandlari hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy va axloqiy sohalariga taalluqli bo'lgan umumjamiyat miqyosidagi qadriyatlar butun insoniyat va jamiyatga tegishli bo'lganidan, umuminsoniy qadriyatlar, deb ataladi».

Tabiatni muqofaza qilish, yekologik tarbiya va madaniyatni rivojlantirish, insoniyatning siqat–salomatligini saqlab holish, qavfli kasalliklarning o'zaro hamkorlikda oldini olish, oziq–ovqatga, yoqilqi va yenergiyaga bo'lgan tanhislikni tugatish, madaniy boyliklarni, kishilik jamiyati taraqqiyotidagi sivilizasiyani muntazam davomini ta'minlashga yerishish, tinchlikni saqlashga yerishish va shu kabilar umuminsoniy qadriyatlar bo'lib hisoblanadi.

Umuminsoniy qadriyatlar o'zining mazmuni, mohiyati, keng miqyosda amal qilinishi, dunyodagi ko'plab xalqlar (yelatlar, millatlar)ning o'tmishdagi, hozirdagi va istiqboldagi (kecha > bugun > yertaga tizimi bo'yicha) taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorlikda yekanligi, o'zida jaqon sivilizasiyasining yaxlit va bir butunligini ifodalaganligi bilan mintaqaviy va milliy qadriyatlardan tubdan farq qiladi.

Umuminsoniy qadriyatlar aloqida xalqlarning va millatlarnigina yemas, balki bashariyat (insoniyat)ning mulkidir.

Demak, umuminsoniy qadriyatlar yeng oliy qadriyat bo'lmish odamning o'zidan boshlab, uning turmush tarzi, hayot mazmuni, oilasi, jamoasidagi o'zni bilan boqliq bo'lgan butun insoniyat va jamiyatga tegishli bo'lgan jihatlar yekan.

Umuminsoniy qadriyat jamiki insoniyatga xos bo'lgan, ularning insoniy fazilatlari, xislatlarini ifodalaydigan an'analar, urf–odatlar, rasm–rusumlar, fikrlar, qoyalar, harashlar, ta'limotlar va shu asosda yuritiladigan faoliyat bo'lib, undan ta'lim–tarbiya soqasida samarali foydalanish ko'plab istiqbolli muammolarni qal qilishga imkoniyat yaratadi. Shuning bilan birga umuminsoniy qadriyatlardan samarali foydalanishda talabalar kelgusi pedagogik faoliyatga tayyorlanadi.

Bunda har bir talaba o'zini namoyon etadi. O'zining bilimni yosh avlodga o'rgatishga sarflaydi. O'zining intellektual boyligini yanada namoyon qitlsh orqali ta'limiy qadriyatlarni o'quvchilarga singdirishga xizmat qiladi.

Intellekt (lotincha intellectus) – bilish, tushunish, idrok yetish demakdir. U insonning aqliy qobiliyati bo'lib, u inson miyasining dunyoni aks yettirish va shaxsning voqyelikka bo'lgan munosabatlarini boshharib turadigan faoliyati, hayotni, atrof–muqitni ongda aynan aks yettirish va o'zgartirish, fikrlar, o'qish–o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribasini qabul qilish qobiliyati; turli muammolarni qal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqyea–qodisalarni oldindan bilish.

Intellektual mulk – ijodiy aqliy faoliyat maqsuli. Ixtirochilik va mualliflik manbai ququqi majmuiga fan, adabiyot, san'at va ishlab chiharish soqasida ijodiy faoliyatning boshqa turlari, adabiy, badiiy, ilmiy asarlar, ijrochi aktyorlik san'ati, jumladan ovoz yozish, radio, televideniye asarlari, kashfiyotlar, ixtirolar, rasionalizatorlik takliflari, sanoat namunalari, kompyuterlar uchun dasturlar, ma'lumotlar ombori, tovar belgilari, firma atamalari va boshqa aqliy mulk manbalari kiradi.

Tajribalarning ko'rsatishicha, BBSO'ni tayyorlashda innovasion yondashuvlar qilishning yana bir ko'rinishi har qanday fan bo'yicha ta'lim berishda ma'naviy tarbiya vositalaridan foydalanish, ayniqsa ma'naviy–ilmiy qadriyatlardan foydalanish o'zining ijobiy pedagogik samaralarini beradi. Bu borada ham ota–

bobolarimiz tomonidan yaratilgan boy intellektual mulk va umuminsoniy qadriyatlarimizni bo'lajak mutaxassislarimiz ongiga va qalbiga muntazam singdirib borishning tarbiyaviy ahamiyati katta. quyida biz ular to'g'risida hisqacha to'xtalamiz.

Ma'lumki, intellekt tarkibiga **idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, so'zlash** va q.k. ruqiy jarayonlar kiradi.

Idrok – insonning bilish, tushunish qobilyati va zehni hamda fahm-farosati.

Idrok – tirik organizmning ma'lumotlar qabul qilib, qayta ishlash jarayoni; organizmga obyektiv reallikning aks ettirish va tashqi olamdagi yangidan-yangi vaziyatlarni baholab, shunga yarasha harakat qilish imkonini beradi. Idrok ongning, miyaning ijodiy jarayonidir. Inson miyasining umumlashtiruvchi faoliyatiga asoslangan idrok jarayoniga kishining tajribasi, bilim, abstrakt tafakkurning faoliyati va boshqalar ham ishtirok etadi.

Xotira – atrof-muhitdagi voqyelikni bevosita va bilvosita, ixtiyorsiz va ixtiyoriy ravishda, passiv va aktiv holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchi esda saqlab qolish, esga tushirish, unitish hamda tanishi, eslashdan iborat ruhiy jarayon, alohida va umumiylik namoyon qiluvchi ijtimoiy hodisa, barcha ta'sirlarni ijodiy qayta ishlashga yo'naltirilgan faoliyat.

Fikr – biror narsa, kimsa haqidagi o'y-hayol. **G'oya** bilan fikr bir-biridan farq qiladi. **Fikr** shaxsiy munosabatlarni ifodalaydi. **G'oya** ijtimoiy munosabatni aks ettiradi. Shuning uchun ham **g'oya** tafakkur mahsuli, ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan **fikrdir**.

G'oya - inson tafakkurida vujudga keladigan, jamiyat va odamlarni maqsad sari yetaklaydigan fikr. Unda olamni bilish va o'zgartirish maqsadlari, ularga erishish yo'llari va vositalari mujassam bo'ladi.

G'oya – inson tafakkuri mahsuli, tashqi olam, obyektiv voqyelik hodisalarini fikrda aks ettirish shakli.

Asos – o'zaro bog'langan ba'zan esa bir-birining o'rnini bosadigan fikrlar (g'oyalar, modellar, algortmlar, mezonlar, tamoyillar va shu kabilar) qatori,


masalan, davlat fikrlash asoslarida, agar yangi strategiyalar huddi shu maqsadlarga xizmat qilsa, har bir bosqich ichida strategiyalarni almashtirish mumkin.

Talabalarni ertangi kun faoliyatiga tayyorlashda, pedagogika turkumidagi fanlarni o'rganish jarayonlarida, darsliklar bilan ishlash kursida ta'limiy qadriyatlarni talabalar ongiga singdirilib boriladi.

Biz ushbu Bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida "O'qish" darsliklarini talabalarga ko'rsatish va undagi barcha mavzular ustida ishlash orqali, o'quvchilarga qanday qilib umuminsoniy, milliy, ma'naviy, ta'limiy qadriyatlarni o'rgatish kerakli haqida fikr yuritib uning metodikasi bilan tanishtiriladi.

Misol uchun 3 sinfning o'qish kitobida "Rostgo'y bola" (Turkman xalq ertagi) ni olib ko'raylik.

Rostgo'y bola (Ertak)



Qadimda bir podshoh bo'lgan ekan. Podshohning farzandi yo'q ekan. Shuning uchun u doimo xomush bo'lib yurarkan. Podshoh vazirning maslahati bilan bolalarga gul urug'i tarqattiribdi. Kimning guli chiroyli bo'lsa, o'shani podshoh farzand qilib olmoqchiligini aytishibdi.

Oradan birmuncha vaqt o'tibdi. Podshoh gul o'stirganlarni ko'rish niyatida shahar aylanibdi. Ko'p bolalar va ular o'stirgan gullarni ko'rib o'taveribdi. Bir

ko'chaga yetganda gulsiz tuvak ushlab o'tirgan bolakayga podshohning ko'zi tushibdi. Bolakayning oldiga borib:

— Sen o'stirgan gullar qani? — deya so'rabdi.

Shunda bolakay gul urug'i o'sib chiq-maganligini aytibdi. Podshoh:

— Men farzand qilish niyatida axtar-gan bola mana shu bo'ladi, — debdi.

Chunki podshoh gul urug'larini qaynattirgan ekan.

H i s s a:

Boshingga qilich kelsa ham to'g'ri gapir.

Demak, ta'limiy qadriyatlarning kishilarga, oilaga, jamoaga, jamiyatga, holaversa davlatga foydasi tegar yekan, faqatgina ulardan oqilona va odilona maqsadga muvofiq ravishda foydalanish lozim, aks holda reaksiyon qadriyatlarning ham paydo bo'lish yehtimoli bor. Biz o'quvchilarimiz ongiga progressiv qadriyatlarimizni singdirmoqimiz lozim, chunki bizning vazifamiz yoshlarimizni bunyodkor g'oyalar bilan, ya'ni milliy istiqlol qoyalari bilan qurollantirishimiz kerak. Ana shundagina jamiyatimiz va davlatimizning faol ishtirokchisi bo'lishi, barkamol shaxsni tarbiyalashga yerishamiz, aks holda yoshlarimiz vayronkor qoyalar, ya'ni har xil yeksterimistik oqimlar qoyalari ta'siriga tushib qolishi mumkin.

Jamiyat va tabiatga nazar tashlasak ahamiyatli narsa-hodisalarni ko'ramiz, uning guvohi bo'lamiz. Biz uchun go'yoki ular oddiy tabiiy bir holdek tuyulishi odatiy tusga kirib qolgan. Ular hayotimizning ajralmas bir qismiga aylanib ulgurgan. Hattoki biz ularning borligi inson ongining mahsuli ekanligini hal etib qo'yganmiz.

Allomalarimizning bizga qoldirgan boy intellektual mulki ilmiy qadriyat hisoblanib, u insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan intellektual mulkdan iborat bo'ladi. Ilmiy qadriyatlarni BBSO' ongi va qalbiga singdirish orqali ularning ilmiy dunyoharashini kengaytirishni amalga oshirishning samarali yo'llaridan biri qo'lga kiritiladi. Talabalar ongiga ilmiy qadriyatlarni singdirishni quyidagi ketma-ketlik asosida olib borish maqsadga muvofiq bo'lar yekan:

- qadriy asos (ilmiy qadriyatlarning namoyon bo'lishi omillari);
- qadriy ong (ilmiy qadriyatlarni paydo qiluvchi asoslar);
- qadriy natija (natijaviy ilmiy qadriyatlar);
- qadriy baqo (ilmiy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyoti va yoshlar ta'lim–tarbiyasiga ta'siri);
- xulosa (shaxs ma'naviy va ilmiy dunyoharashi shakllanganligi bo'yicha);
- bashorat (shaxs ilmiy dunyoharashi yuksalishi bo'yicha);
- amaliy faoliyatga foydalanishga tavsiya .

Demak, umuminsoniy va ilmiy qadriyatlardan avvalo fan va ta'lim taraqqiyotida, kishilar turmush sharoitini yaxshilashda, oila kamoliga yerishishda, jamoa manfaatlarini yuksaklikka ko'tarishda, jamiyat taraqqiyoti saviyasini tezlashtirishda va davlatning iqtisodiy hamda ma'naviy–ma'rifiy qudratini yuksaltirishda foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, bundan pirovard maqsadimiz xalq farovonligi, yurt tinchligi, Vatan taraqqiyotini o'zida mujassam qilgan Ozod va obod Vatan qurishdan iborat.

Yuqorida qayd yetilgan umuminsoniy va ilmiy qadriyatlarni ongli ravishda bilish uchun bo'lajak mutaxassisdan sinchkovlik, sezuvchanlik, idrok qilishlik va shu kabi xislatlarga yega bo'lishlik talab yetiladi.

Ilmiy qadriyatlarning yoshlar ongiga singdirilishi ta'limiy qadriyat bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limini tashkil yetishda xalq pedagogikasi katta qimmatga ega va u orqali ta'limiy qadriyatlar singdiriladi. Binobarin, uning mazmunida ifoda yetilgan g'oyalar, mavjud bilimlar inson kamolotining sifatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xalq ogzaki ijodi namunalari - afsona, doston, hissa, rivoyat, yertak, mahol va qushiqalarda yezgulik ifoda yetiladi. Shuningdek, ularda yosh avlodni tarbiyalash va unga ta'lim berish usullarii, pand — nasihat va talablar mavjud.

Xalq uyinlari o'quv — tarbiyaviy xususiyatga yega vosita hisoblanadi. Xalk, pedagogikasi zamonaviy ta'limning xamda pedagog kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashda muhim qadriyatlaridan biri sanaladi.

Shunday kilib boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy-madaniy qadriyatlar asosida ma'naviy - axloqiy tarbiyalash dolzarblashib boradi. Bu jarayonda Sharq mutafakkirlari va xalq pedagogikasi merosidan imkon qadar samarali foydalanish zarur.

Milliy ma'naviy qadriyatlar va milliy istiqlol qoyasining uzviy aloqadorligi ularning faol o'zaro ta'sirida namoyon bo'ladi. Milliy qoya ma'naviyatga tayanishi, undan hayot va ozuqa olishni bilan birga, ma'naviy-ruqiy hayotga ham ijobiy ta'sir o'tkai sh Milliy qoya qadriyatlarni yanada yuksaltirish, ularni odamlarshkm ongi va qalbiga singdirish, istiqlol va istiqbolga xizmat qilmaydigan jihatlarini bartaraf yetish vazifalarini ham amalga oshiradi. Ma'naviy hayotdagi behisob qodisalarpi, qadrshp va ne'matlarni xalq manfaatleri va ye'tiqodi nuqtai nacharnchai baholash - milliy qoya mezonlari bilan o'lchanadi.

Milliy g'oya dastavval har bir inson uchun yeng yaqip bo'lgan oilaviy munosabatlar - ota-ona va farzandlar, aka-uka ia oil singillar, harindosh-uruqlar orasidagi aloqalarni yuksak ma'naviy qadriyatlar asosiga qurishni taqazo yetadi. Uzbek xalkm yaratgan, jaqon aqli ye'tirof yetgan betakror va buyuk qadriyat-maqallaning qurmati va ye'tiborini, uning o'z-o'zini boshharishdagi rolini oshirish ham milliy qoyaning muhim vazifasidir.

Marosimlar, urf-odat va an'analar har bir xalqning betakror boyligi, merosidir. Insonning hayoti, u tuqilganidan boshlab, vafot yetgunga qadar turli marosimlar doirasida o'tadi, Marosimchilik millatning o'ziga xosligi va tarixiy tajribasini saqlash va an'analarni kelajakka yetkazish vositasidir. Ayni paytda, milliy ma'naviy qadriyatga aylangan bunday urf-odat va rasm-rusumlar zamon talablari asosida, milliy qoya ruqida qayta baholanib boradi. Kelajakka, taraqqiyotda ahamiyati bo'lgan qadriyatlar aloqida ye'tiborni talab yetadi. Milliy ma'naviy qadriyatlar tarkibiga kiruvchi qisimlarni o'zgarmas va bir darajada qotib holgan deb hisoblash mumkin yemas. Bular doimo rivojlanib, o'zaro ta'sir natijasida o'zgarib, davr ruqi va.-milliy qoyaning talablari asosida yangilanib, ma'nan boyib, rivojlanib boradi.

Milliy ma'naviy qadriyatlar ming yillar davomida shakllangan, tarix sinovlariga dosh berib, necha-necha avlodlardan o'tab kelayotgan ma'naviy boylik yekanligi shubqasiz. Lekin bu boyliklar o'z-o'zidan va osonlikcha qadriyatga aylanmaydi. Ular jamiyat a'zolari, turli guruh va jamoalar tomonidan o'zlashtirilganda, hayotiy qo'llanma sifatida qabul qilingandagina qadriyatga aylanadi. Tom ma'nodagi qadriyat maqomini olish uchun bular shaxs va ijtimoiy guruhlarning ichki dunyosi va turmush tarziga singishi, faoliyatini yo'lga solish va baholash mezoniga aylanishi kerak.

O'zbek xalqiga xos azaliy qadriyatlardan biri - sabrdir. Abdulla Avloniy ta'biri bilan aytganda, "Sabr deb boshimizga kelgan balo va qazolarga chidamli bo'lmoqlikni aytilur... Sabr insonlar uchun buyuk bir fazilatdur". Qur'oni karimda: "Allohu ma' as-sobiriyn", ya'ni xudo sabrlilar bilan birgadir" deyilgap. Xalqimiz "Sabr qilsang - yetarsan murodga" deb bejiz aytmagan.

Sabr bilan bog'liq va unga yaqin tushunchalar - qanoat, toqat, chidam, bardosh kabilardir. Sabr qilish -uzlatga chekinish, harakat va faollikni susaytirish, nuqsonlarga murosasoz bo'lish degai ma'noni anglatmaydi. Sabr-bardosh, milliy qoya ruqida talqii qilinsa - qat'iyat va chidam bilan mehnat qilish, qiyinchiliklarpi yengish, nafsni jilovlash, qasratdan yiroqlashish, ilm-fam sirlarini yegallashdir.

O'zbek xalqiga xos bo'lgan, boshqa tillarga tarjima qilish mushkul bo'lgan qadriyatlar -savob, muruvvat, saqovat, andisha kabi tushunchalarda insoniy moqiyat mujassamlashgan. Savob, keng ma'no va dunyoviylik kasb etgan, xalqning iymon-e'tiqodidan chuqur o'rin olgan tushunchadir.

Buning barchasini yoshlar ongiga singdirish ta'limning vazifasi, uni qadirlash esa insonning vazifasi. Ikkalasi bir bo'lib ta'limiy qadriyatlarni tashkil qiladi.

2.2. Boshlang'ich sinif o'quvchilariga ta'limiy qadriyatlarini singdirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish

Ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy yetish o'quvchilar tomonidan mavjud ilmiy bilimlarni puxta uzlashtirilishni kafolatlovchi yondashuv xisoblanadi. Bizga yaxshi ma'lumki, "ta'lim texnologiyasi" tushunchasi yesa o'z mohiyati, uning bosqichlari, o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida kechadigan ta'limiy munosabatlarninsh mazmunini anglatishga xizmat qiladi.

"Pedagogik texnologiya" tushunchasi esa o'z mohiyatiga ko'ra pedagogik faoliyatning eng muhim ikki jihati, ya'ni, ta'lim hamda tarbiya jarayonining texnologiyalashtirishni ifoda yetishi zarur.

Pedagogik texnologiya — ukituvchi maxoratiga bog'liq bulmagan xolda pedagogik muvaffakiyatni kafolatlay oladigan, ukuvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyixasidir. (*V.P. Bospalko.*)

Pedagogik texnologiya — ta'limning rejalashtiriladigan natijalariga erishish jarayoni tafsiloti. (*I.P. Volkov.*)

Ta'lim texnologiyasi — didaktik tizimning tarkibiy ja-rayonli kismi. (*M. Choshanov.*)

Pedagogik texnologiya — ukuv jarayonining ukuvchilar va ukituvchi uchun suzsiz kulay sharoitlar ta'minlashni loyi-xalash, tashkil kilish va utkazish buyicha x.amma detallari uylab chikilgan birgalikdagi pedagogik faoliyat modeli. (*V. M. Monaxov.*)

Pedagogik texnologiya — texnika resurslari, odamlar va ularning uzaro ta'sirini xisobga olgan xrla ta'lim shakl-larini optimallashtirish vazifasini kuyuvchi ukitish va bilimlarni uzlashtirishning xamma jarayonlarini yaratash, kullash va aniklashning tizimli metodi (*YuNESKO*).

Pedagogik texnologiya — bu tizimli fikr yuritish usuli-ni pedagogikaga singdirish, boshsacha k.ilib aytganda, pedagogik jarayon ni muayyan bir tizimga keltirishdir.

Pedagogik texnologiya — bu ukitishga uziga xos yangicha (innovation) yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muxandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika soxasiga kuchirilgan tasviri, ta'lim jarayonining muayyan standartlashuvi xisoblanadi.

Pedagogik texnologiya — turli mualliflar (manbalar)ning barcha ta'riflari mazmunini uzida mujassam etuvchi umumlash-tirishdan iborat. (*G. K. Selevko.*)

Boshlang'ich ta'lim tizimida ta'limiy qadriyatlarni o'quvchilar ongiga singdirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanilsa yuqori darajadagi samaraga erishish mumkin. Zamonaviy pedagogikaning an'anaviy pedagogikadan farqi-uning yuqori maqoratida bo'lib, u o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishi, individual qobiliyatlarini oshirish, ijodiy mustaqilligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruqiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni qosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik maqorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondoshuvni talab yetadi.

Bugungi kunda yuritimizda olib borilayotgan islohatlar ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida qurilishini taqoza etmoqda.

Banda ta'lim jarayoniga “Klaster”, “Yalpi fikriy qujum”, “Fikrlashning shiddatli qujumi”, “6x6x6” metodi, “Aqliy qujum”, “harolar shajarasi”, “qora quti”metodi, “Beshinchisi ortiqcha” metodi, “Rasmlarni to'g'ri joylashtir” metodi, “qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash” metodi, “Videotopishmoq” metodi, “Yumaloqlangan qor o'yini”metodi, “Zakovatli zukko” metodi, “qarama-qarshi munosabat” metodi, “Bilaman. Bilishni hoqlayman. Bilib oldim.” metodi, “Zig-zag” strategiyasi, Ven diagrammasi metodi, “o'zing davom ettir” “Bu

mumkin emas” kabi metodlarni olib ketish orqali boshlang’ich sinflarni o’qitishda ulardan unumli foydalanib, o’quvchilarni faollashtirish orqali zaruriy bilimlar o’quvchilarga singdiriladi.

ERTAKLARDA AKS ETGAN HIKMATLAR.

(2-sinflar uchun)

Dars mavzusi: “oltin tarvuz” ertagi.

Dars maqsadi:

a) o’quvchilarga ertakning mazmun – mohiyatini ochib berish, matnni ifodali, ketma – ketlikka rioya qilgan holda o’qib, gapirib berishga o’rgatish. “Atigi”, “tinmay”, “salqinlatib” so’zlarining manosini tushuntirish.

b) Estetik tarbiya berish, ularni mehnatsevarlik, halollik, mehribonlikka o’rgatish. Ma’naviy, marifiy, ekologik, iqtisodiy bilim berish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

s) talimiy o’yinlar orqali o’quvchilarning darsda faolligini oshira borib kasbga yo’naltirish, konstitutsiyaviy bilimlarini kengaytirish, ko’cha harakati qoidalarini, yong’in xavfsizligi oyligi haqida o’rganganlarini mustahkamlash.

d) DTSga asosan reyting usulida baholash.

Darsning uslubi: O’yin, musobaqa.

Dars jihozi: turli rasimli ertaklar, texnika vositasi, ertak qahramonlari, “O’zbek halq ertaklari”, “Oltin kalit”lar, sehrli sandiq, Navro’zoy.

Darsda qo’llaniladigan interfaol usullar: “Klaster”, “Aqliy hujum”, savol javob, test, ijodiy ish, “Venn diagrammasi”, “T” usulidagi musobaqa, sahna ko’rinishi.

Darsning borishi: tayyorlov bosqichi.

O’quvchilar yarim aylana bo’ylab turadilar.

O’qituvchi: - Qani, o’quvchilar darsimizga tashrif buyurgan mehmonlar bilan salomlashaylik.

O’quvchilar (bir – birlari bilan ko’rishib, she’r aytishadi):

- Omonmisiz, esonmisiz,

Bugun bizga mehmonmisiz.

Qani, qani, qo'lni bering,

Xush ko'rdik biz, to'rga o'ting.

O'qituvchi ob – havo va sanani, shuningdek, o'tilgan mavzuni so'raydi.

- Bolalar bo'lim yuzasidan takrorlash uy vazifasi qilib berilganligi haqida aytadilar.

O'qituvchi (bolalar diqqatini doskadagi rasmlarga qaratadi): - Bolalar, bugun qaysi mavzu haqida suhbatlashamiz.

O'quvchilar: - Yertaklar haqida.

O'qituvchi bolalarning xalq og'zaki ijodi, uning namunalari to'g'risida fikrlarini eshitadi. Shundan so'ng, navbatdagi topshiriqni beradi. (O'qituvchining qo'lida turli rangdagi geometrik shakllar bo'ladi).

- siz mening qo'limdagi ranglardan tanlab olasiz va guruhlarga bo'linasiz. Har bir guruh o'zi tanlagan rangdagi stol atrofiga borib o'tiradi. Men har bir guruhga bittadan kalit shaklini beraman. Siz dars davomida olgan jetonlaringiz bilan kalitni to'ldirib borasiz. Dars so'ngida birinchi bo'lib kalitni to'ldirgan guruh sehirli sandiqni ochishga muvassar bo'ladi va g'liblar uchun atalgan maxsus savg'oni qo'lga kiritadi. O'quvchilar rang tanlaydilar va o'z o'rinlarini egallaydilar 5 guruhga bo'linadilar:

Chaqiruv bosqichi.

O'qituvchi: - Bolalar, bugungi darsimizda “Oltin baliq”, “Sholg'om”, “Bo'g'irsoq”, “Oltin kalitcha”, “Quyoshjon” kabi ertak qahramonlari ham qatnashmoqda. Ular aytgan topshiriqlarni topib, ballar yig'amiz va sevimli qahramonlarimiz rasmlari orqasida yashiringan sehirli so'zlarni bilib olamiz.

Navbat - “Oltin baliqqa”.

Har bir guruhga “Aqliy hujum” savollari beriladi.

1. “Ur to'qmoq” ertagidagi chol laylakdan birinchi marta nimani so'raydi?
2. Zumradni kim o'rmonga adashtirib keladi?
3. Chol dengizdan nimani tutib oladi?
4. Shohzoda qoroqchilar nimani tutib oladi?
5. Nima uchun ertakning nomi “Oltin tuyoqli kiyik” deb atalgan?

1. 5 ta ertak nomini sanang.
2. Latifalarning asosiy qahramoni kim?
3. Ertaklar haqida she'r ayting.
4. Ertak so'zini tahlil qiling.
5. Mehnatsevarlik haqida maqol ayting.

Barakalla, bolajonlar, topshiriqni a'lo darajada bajardingiz "Oltin baliq" rasmi orqasida "ertaklarni" so'z paydo bo'ladi.

Muammoni yechish. "Anglash bosqichi".

O'qituvchi: - Navbat – Sholg'omvoyning topishmog'iga.

1. "Oltin tarvuz" ertagini ifodali o'qing.

O'quvchilar navbat bilan o'qishadi. O'qituvchi ularning ifodali va ravon o'qishni baholaydi.

2. o'quvchilarga ertak asosida reja tuzish topshiriladi.

Reja:

- 1) Laylakning qanoti sindi.
- 2) Dehqon uni davoladi.
- 3) Uch dona tarvuz urug'i.
- 4) Ochko'z dehqonning hiylasi.
- 5) Ochko'zlikning oqibati.

3. Lug'at ishi. Sizga notanish bhlgan so'zlar ma'nosini qanday tushunasiz.

- 1) Atiga – bor-yo'g'i
- 2) Tinmay – dam olmay
- 3) Salqinlanib – shamollab
- 4) 1 tanob – 60x60 gaz (1 gaz – 1 m).

O'qituvchi: - Barakalla, Sholg'omning topshirig'ini bajardik. natijada "o'qib" so'zi kelib chiqdi.

Dam olish daqiqasi.

- Navbat Bo'g'irsoqqa. Biz bilamizki, u yo'lda qo'shiq kuylab ketadi. Kelinglar, biz ham ertaklar haqida qo'shiq kuylaylik.

1 – o'quvchi:

- Bor ekanda yo'q ekan,

Och ekanda to'q ekan.

2 – o'quvchi:

- Bo'ri bakavul ekan,

Tulki yasovul ekan.

3 – o'quvchi:

- qarg'a qaqimchi ekan,

Chumchuq chaqimchi ekan

4 – o'quvchi;

- yaqin o'tgan zamonda,

Buxoroi makonda,

Bir maktab bo'lar ekan.

5 – o'quvchi:

- unda jajji bolalar,

Ertaklar o'qisharkan,

Qo'shiqlar kuylasharkan.

(Qo'shiq kuylanib, raqs ijro etiladi).

Bo'g'irsoqning orqasidan "har vaqt" so'zi kelib chiqadi.

Mustahkamlash.

Fikirlash

bosqichi.


Navbat «Oltin kalit» topshirig'iga.

O'qituvchi yangi mavzu bo'yicha har bir guruhga alohida topshiriq beradi.

1- guruh: «Ertaklar».

Boy va kambag'al dehqonni «Venn diagrammasi»da tasvirlaydilar.

Venn diagrammasi



2-guruh: «Latifa». Tarvuzni «Т» harfi ostida tasvirleydilar.

TARVUZ

Ширин Қизил Мазали Буйрак хасталиги учун фойдали, Серсув шифобахш	Пўсти қалин Уруғи йирик, кора. Муроббоси мазалим, шарбати ширин
--	--

3-guruh: «She'riyat»

O'zlari o'qigan ertaklar haqida she'rlar yozishadi.

4- guruh: «Maqol».

Tarvuz haqida masala tuzishadi, rasmlar chizishadi.


5-guruh: «Topishmoq».

Yertakdagi Laylakni «Klaster» usulida tasvirleydilar.

O'quvchilarning ishlari baholanadi. Oltin kalit orqasidan «yaxshilardan» so'zi kelib chiqadi.

Navbat Kapalakning topshirig'iga.

Guruh sardorlari Quyoshjonning nurlarida yashiringan testlarni bajaradi;



1. Ertak nima?

- A) xalq og'zaki ijodi namunasi;
- V) she'r;
- S) hikoya

2. Bir sutka necha soat?

- A) 20 soat;
- B) 12 soat;
- S) 24 soat;

3. Qish fasli qaysi oylardan iborat?

- A) yanvar, fevral, mart;
- B) dekabr, yanvar, fevral;
- S) mart, aprel, may.

4. «Assalomu alaykum» so'zining ma'nosi nima?

- A) ahvolingiz yaxshimi?
- B) sizga sog'lik tilayman;

S) sizga tinchlik, sog'liq tilayman;

5. Bir yilda nechta oy bor?

A) 12 ta

B) 10 ta

S) 3 ta

Topshiriq bajarilgach, kapalakning orqasidan «oling» so'zi paydo bo'ladi.

O'qituvchi: - Barakalla, bolajonlar, bu bizning oltin tarvuzimiz. Xo'sh, siz uning ichidan nima chiqishini istaysiz?

Bolalar o'z fikrlarini aytib, izohlaydilar.

O'qituvchi: - Juda yaxshi, keling, uni yorib ko'raylik-chi. (Tarvuz modeli 2ga ajratiladi, uning ichida «ibrat» so'zi yozilgan kartochka chiqadi) O'quvchilar «ibrat» so'zining manosini izohlaydilar.

Darsni yakunlash.

O'qituvchi: - Demak, bolalar, bugun o'qish darsida biz o'zimiz o'qigan ertak qahramonlarining topshiriqlarini bajarib, ballar yig'ib, kalitimizni to'ldirdik va yashiringan so'zlardan hikmatli ibora tuzdik. Kelinglar, uni birgalikda o'qiymiz.

Bolalar jo'r bo'lishib o'qiydilar: - «Ertaklarni o'qib har vaqt, yaxshilardan oling ibrat».

O'qituvchi: - Barakalla, bolajonlar, endi mavzu asosida chizib kelgan rasmlaringizga etiboringizni qarataman. Ularni baholaymiz. (Shu payt bir guruhning kaliti ballar Bilan to'lganligi to'g'risida ma'lum qilinadi) – Bolalar, endi shu kalit Bilan sehri sandiqni ochamiz. Sandiq ichidan Navro'zoy chiqadi va faol qatnashgan bolalarga turli savg'alar ulashadi.

O'qituvchi: - Bugungi darsimizda barcha o'quvchilar faol qatnashadilar. Ularni to'plagan ballariga ko'ra baholaymiz. Uyga vazifa qilib «Oltin tarvuz» ertagi haqida ijodiy ish yozib kelish topshirig'i beriladi. Shunday qilib, darsimiz tugadi, barchangizga faol ishtirokingiz uchun kata rag'mat.

Umumiy xulosa.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi ta'limiy qadriyatlarini bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilariga singdirish qaratilgan bo'lib, unda asosan talabalarga ta'limiy qadriyatlarni o'rgatish tizimi boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatish qaratildi.

Boshlang'ich ta'limda milliy psixologiyaning shakillanganligi, milliy pedagogikaning xalqimiz ongiga chuqur singdirilganligi bir qator falsafiy, ijtimoiy siyosiy, psixologik va pedagogik adabiyotlarda o'z aksini topganligi yoritildi. Shunga asosan boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ta'limiy qadriyatlarni singdirishda o'qish darslarida qay tarzda foydalanish mumkinligi alohida tadbiq etildi.

Mazkur ishning birinchi bobida talabalarga ta'limda ta'limiy qadriyatlarni o'rganishning qo'llash tizimiga yo'naltirilganligi sababli unda milliy qadriyatlar, ularning ko'rinishlari, ma'naviyat, madaniyat, ma'rifat, qadr, qadriyat kabi ta'riflarga to'xtalishga va ularni o'rganishga to'g'ri keldi. Ushbu ishni bajarish jarayonida ta'limiy qadriyatlarni ma'naviyatni yoshlar ongiga singdirish muammosi bilan shug'illangan bir qator faylasuf, pedagog va psixolog olimlarning izlanishlari kuzatildi.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobi asosan talabalarga ta'limiy qadriyatlarni o'rgatishning shart-sharoitlarini o'rgatishda qo'llanilishi ko'zda tutilayotgan interfaol metodlar, axborot va telekommunikasiya vositalarining imkoniyatlariga qaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. RASMIY ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. –T.: «O'zbekiston», 1998. - 48 bet.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». -T.: «Sharq matbaa-nashriyoti konserni», 1997. -20-29 betlar.
3. Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.-T.: «O'zbekiston».1998.-5-66 betlar.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent “Ma'naviyat”. 2008 y 173 bet.
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, o'zbekiston sharoitida uni bartaraf yetishning yo'llari va choralari. T.: “Iqtisodiyot” 2009 y
6. I.A.Karimov “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish” xalq so'zi 2010 yil 30 yanvar №21 (4936) 3 bet.
7. I.A.Karimov – “Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqorolik jamiyati barpo etish – ustvor maqsadimizdir” O'zbekiston ovozi. 28 yanvar. №12 (30.132) 3 bet.

II. Ilmiy, ilmiy-metodik, badiiy- publisistik adabiyotlar.

8. Abdurahmonov A. Qadriyat – ma'naviy merosdir // «Ma'rifat gulshani» g. – 12 (77) 2007y. – 7-bet
9. Al-Buxoriy, abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil, Al-adab-al Mufrad (Adab durdonalari): Tarjima, muqad va izohlar muallif Sh.Boboxonov-T.: «O'zbekiston»,1990. -199 bet.
10. Asqar Zununov. Pedagogika nazariyasi T.: «Aloqachi» 2001 y. 163 bet.
11. Asqar Zununov. Ulfat Maxkamov Didaktika (Ta'lim nazariyasi) Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. T.: «Sharq» nashriyot - matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T.: 2006 y. 125 bet
12. Barkamol avlod – Ozbekiston taraqqiyotining poydevori. Tosh. 1998, 7-bet
13. Zaripov M.Z.Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning rivojlanishi «Pedagogik ta'lim»,-T.: 2000.- №2.-6-9 betlar.

14. Yo'ldoshev J.G'. Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T: «O'qituvchi», 2004, - 95 bet.
15. Isomiddinova M. O'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda pedagogning faoliyati va o'rni. Samarqand davlat chet tililar instituti.
16. Jo'rayev N., Fayzullayev T. Istiqlol va tarixiy jarayon. – T.: 2000. – G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 34-bet
17. Kushvaktov N. Milliy- ma'naviy qadriyatlarni o'rgatishning hayotga tadbiiq yetilishi. «Boshlang'ich ta'limda innovasion texnologiyalar: muammolar, yechimlar» mavzusidagi respublika ilmiy – amaliy anjuman materiallari. Jizzax. 2006 yil – III – qism. 63-65 betlar.
18. Tulenov J.T. Qadriyatlar falsafasi.-T.: «O'zbekiston», 1993. -319 bet.
19. Falsafa. Qomusiy lug'at. –T.: «Sharq», 2004. -467 bet.
20. O'zME. T.: 2002, 2-4-tom.
21. HasanboyevJ., To'raqulovX.A.,Haydarov M. Hasanboyeva O., Usmonov N. “Pedagogika fanidan izohli lug'at” T.: “Fan va texnologiya”. 2009 yil.

Jonizoqova Dildoraning “**Boshlang’ich ta’lim va sport tarbiyaviy ishi**”
yo’nalishi bo’yicha bakalavr darajasini olish uchun tayyorlagan “**Boshlang’ich
ta’limda ta’limiy qadriyatlarning orni**” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga
ilmiy rahbar

X U L O S A S I

Ta’lim-tarbiya tizimida olib borilayotgan tub islohotlar zahirida shaxs va uning kamoloti yotadi. Shuning uchun ham bugungi kunda davlat siyosatining ustivor yo’nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Fan va texnikaning jadal sur’atlar bilan rivojlanishi yoshlarga bir qator qulayliklar va imkoniyatlarni yaratib bermoqda.

Olib borilgan ushbu bitiruv malakaviy ishida nafaqat ma’lum bir mavzu yuzasidagi ta’limiy qadriyatlarni o’rgatish muammolari balki butun bir tarbiya tizimiga e’tibor berilgan.

Boshlang’ich sinf o’quvchilariga ta’limiy qadriyatlarni o’rgatish tizimini singdirishni o’rgatishda o’qish darslarida umuminsoniy, milliy va ma’naviy qadriyatlarga tayangan holda olib borilgan ushbu bitiruv malakaviy ishi mavzusiga oid adabiyotlar to’liq o’rganilib chiqildi va muallif tomonidan o’ziga xos ilmiy xulosalar chiqarildi.

Jonizoqova Dildora tomonidan olib borilgan bitiruv malakaviy ishi “**Boshlang’ich ta’limda ta’limiy qadriyatlarning orni**” mavzusini to’liq yoritishga xzmat qiluvchi bitiruv malakaviy ishi usullari belgilanib olindi.

Mazkur BMIda boshlang’ich sinf o’quvchilariga ta’limiy qadriyatlarni singdirishning nazariy tomonlari;

Boshlang’ich ta’limda ta’limiy qadriyatlardan foydalanishning ijtimoiy qirralari;

O’qish darslari orqali o’quvchilarga ta’limiy qadriyatlarni singdirish yo’llari yoritiladi;

O’qish darslari orqali o’quvchilariga ta’limiy qadriyatlarni singdirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo’llari ko’rsatildi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishini to’liq tugallangan ish deb hisoblab uni himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

p.f.n. dos. Kushvaktov N.X.

A.Qodiriy nomli JDPI Pyedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishining 402 – guruh talabasi Jonzoqova Dildora
“Boshlang'ich ta'limda ta'limiy qadriyatlarning orni” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga
T A Q R I Z

Ta'lim-tarbiya tizimida olib borilayotgan tub islohotlar zahirida shaxs va uning kamoloti yotadi. Fan va texnikaning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi yoshlarga bir qator qulayliklar va imkoniyatlarni yaratib bermoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'limiy qadriyatlarni singdirishga qaratilgan jarayonda umuminsoniy, milliy - ma'naviy qadriyatlarga keng tuxtalib o'tildi.

Jonzoqova Dildora tomonidan yozilgan “Boshlang'ich ta'limda ta'limiy qadriyatlarning orni” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Mazkur bitiruv ishi kirish qismida ishning dolzarbligi, ob'yekti, pryedmyeti, vazifalari, ilmiy yangiligi talab darajasida rasmiylashtirilgan.

Bitiruv malakaviy ishi birinchi bobi “Boshlang'ich ta'limda ta'limiy qadriyatlarni o'rganishning nazariy asoslari” deb nomlanib, unda O'quvchilarga ta'limiy qadriyatlarga qiziqtirishni singdirish tizimi, shakllantirish mohiyati talab darajasida bayon etilgan. Unda asosan mavzuga oid adabiyotlar o'rganilib taxlil qilingan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobi “Boshlang'ich ta'limda ta'limiy qadriyatlarni o'rgatishning shart-sharoitlari” deb nomlanib, unda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'limiy qadriyatni o'rgatish metodikasi va texnologiyalaridan foydalanish o'rganib chiqilgan.

Jonzoqova Dildora tomonidan bajarilgan ushbu bitiruv malakaviy ishining muammosi ilmiy jihatdan asoslangan.

Bitiruv malakaviy ishi Oliy ta'lim talablari asosida tayyorlangan.

Ishni yakuniy davlat attyestatsiyasi huzurida himoya qilishga tavsiya etaman.

JizPI ma'naviy-ma'rifiy ishlar prorektori:

p.f.n. Alimov N.

A.Qodiriy nomli JDPI Pyedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishining 402 – guruh talabasi Jonzoqova Dildora
“Boshlang'ich ta'limda ta'limiy qadriyatlarning orni” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Jonzoqova Dildora tomonidan “Boshlang'ich ta'limda ta'limiy qadriyatlarning orni” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish qismida ishning dolzarbligi, ob'yekti, predmeti, vazifalari, ilmiy yangiligi talab darajasida rasmiylashtirilgan.

Bitiruv malakaviy ishi ikki bobdan iborat bo'lib, birinchi bobida boshlang'ich ta'limda ta'limiy qadriyatlarni o'rganishning nazariy asoslari haqida fikr yuritilgan. Bobga tyegishli bo'lgan barcha adabiyotlar o'rganilib tahlil qilingan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobida boshlang'ich ta'limda ta'limiy qadriyatlarni o'rgatishning shart-sharoitlari ishlab chiqilgan bo'lib, bitiruv malakaviy ishi ilmiy-uslubiy jihatdan asoslab byerilgan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi to'liq yoritilgan bo'lib ishda ayrim arfografik xatolar uchraydi. Bu arfografik xatolar ishning mazmuniga salbiy ta'sir o'tkazmaydi.

Bitiruv malakaviy ishida kyeltirilgan tavsiyalardan ta'lim jarayonida foydalanilsa, ijobiy pyedagogik samaralarni qo'lga kiritish kafolatlanadi.

Ushbu bitiruv malakaya iy ishi ilmiy jihatdan asoslangan. Oliy ta'lim talablari asosida tayyorlangan. Ishni yakuniy davlat attyestatsiyasi huzurida himoya qilishga tavsiya etaman.

Umumiy pedagogika kafedrasi o'qituvchisi:

Sodiqov H.

